

**O'ZBEKIRTON RESPUBLIKARI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Kimyo va uni o'qitish metodikasi kafedrasi  
Kimyodan masalalar yechish  
metodikasi**

**FANIDAN O'QUV QO'LLANMA**

**TOSHKENT-2020**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**TABIYY FANLAR FAKULTETI**

**KIMYO VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI**

**Kimyodan masalalar yechish metodikasi**

**FANIDAN**

**O'QUV QO'LLANMA**

«Kimyodan masalalar yechish » deb nomlangan ushbu o'quv qo'llanma pedagogika universitetlari bakalavrlari uchun mo'ljallangan bo'lib, bunda kimyoning eritmalar va ularning konsentrasiyalari, oksidlanish qaytarilish jarayonlari va ularni qo'llanishi, elektroliz, elektrolitik dissotsilanish shuningdek, anorganik va organik kimyodan murakkab masalalariga ahamiyat berilgan. Bundan tashqari talabalar o'zlarini bilimlarini tekshirish uchun har bo'limda savollar va masalalar keltirilgan. Ushbu qo'llanma pedagogika sohasidagi oliy bilimgoh talabalari uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, undan akadem-litseylar, kasb-hunar kolledjlari o'qituvchilari, talabalari, kimyo asoslarini mustaqil o'r ganuvchilar ham foydalanishi mumkin.

**Tuzuvchi:** Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo o'qitish metodikasi kafedrasi o`qituvchisi Sh.B.Farmonova

**Taqrizchilar:** O'zMU Kimyo fakulteti “Analitik kimyo kafedrasi ” mudiri, k.f.d. Z.A.Smanova

Nizomiy nomidagi TDPU Kimyo o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, k.f.n. M. I. Ibodullayeva

*Mazkur o`quv qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU o`quv uslubiy kengashining  
2020 yil, “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi -sonli qarori bilan tavsiya etilgan*

## **So'z boshi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan kimyo bakalavr-o' qituvchi ihtisosligini beradigan o'quv rejasiga muvofiq kimyodan masalalar yechish chuqur o'zlashtirilishi bo'lajak kimyo o'qituchisining mutaxassisligi bo'yicha tayyorgarligini belgilaydi. Chunki kimyodan masalalar yechish, kimyo y o'nalishidagi akademik litsey, kasb xunar kolleji va o'rta umum-ta'lim maktablari kimyo kursining asosiy qismini tashkil qiladi.

Oliy o'quv yurtlari oldida turgan muhim vazifa - ilg'or texnologik jarayonlarga asoslangan holda ish ko'ruvchi va yangi g'oyalarni amalga oshiruvchi, o'z sohasini yaxshi biladigan yuqori saviyali mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Bu esa zamon talablariga javob bera oladigan darslik va o'quv-qo'llanmalar yaratilishini taqozo qiladi .

Kimyo dunyoni tashkil etgan elementlarni hamda shu elementlardan hosil bo'lgan turli-tuman oddiy va murakkab moddalarni , ularning bir biriga aylanishiga doir murakkab qonunlarni o'rganadi.

Hozirgi davrda har taraflama kamol topgan har bir mutaxassis kimyo asoslarini bilmay turib ish yurita olmaydi. Eng oddiy kimyoviy tasavvurlarga ega bo'lmay turib , atrof- muhit ekologik holatini tushunib etmaydi. Tavsiya etilayotgan mazkur qo'llanma oliy va mahsus o'rta ta'lim vazirligi tomonidan tasdi qlangan na'munaviy dasturlarga asoslangan holda pedagoglar tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallab yozilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmadan pedagogika oliy o'quv yurtlarining talabalari, o'rta maktab o'qituvchilari , akademik litsey, kasb- hunar kollejlarining talabalari, shuningdek kimyo fani asoslarini mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin.

## **Kimyodan masalalar yechishga umumiy metodik talablar**

Kimyoviy masalalarni yechishdan asosiy maqsad - kimyoviy qonun va qoidalarni, ulardan foydalanishni kimyoviy formulalar tuzishni o'rgatish va ularni tobora rivojlanayotgan hozirgi zamon kimyo faniga, uning yutuqlariga tatbiq eta olishdan iboratdir. Masalalarni yechishga kirishishdan oldin zarur nazariy va faktik materialni takrorlash muhim ahamiyatga ega.

Kimyoviy masalalarni yechish usullari turlicha bo'lib, masalalarni yechishda qaysi usulni tanlash masalaning shartidan kelib chiqadi.

Masala yechish uchun uning aniq rejasini tuzib olish va imkonli boricha ixcham, qisqa usul bilan echishga harakat qilish kerak. Har qanday holatda ham masala yechishda e'tiborni quyidagilarga qaratish zarur:

1. Masalani o'qib, tanishib chiqib ayni masala orqali hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlash;
2. Masala shartida qaysi modda, qaysi element ishtirok etishini belgilash;
3. Masalada ishtirok etuvchi moddalarning molyar massasi, nisbiy molyar massasi, molyar hajmi, elementning tartib nomeri, nisbiy atom massasi va boshqa tushunchalarni aniqlash;
4. Masala kimyoning qaysi bo'limiga taalluqli ekanligini aniqlash;
5. Eritmalarga doir masalalarni yechishda ularning foiz, massa ulushi, molyar, normal, ekvivalent konsentrasiyalari va ulardan foiz konsentrasiyasi berilgan bo'lsa, jadval asosida uning zichligini, zichligi berilgan bo'lsa, foiz konsentrasiyasini yoki massa ulushini aniqlash;
6. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga doir masalalarni yechishda reaksiyada ishtirok etuvchi elementlarning oksidlanish darajalari o'zgarishi aniqlanadi, jarayonning elektron tenglamalari tuziladi. Oksidlovchi element (atom) yoki qaytaruvchi element (atom yoki ionlar) aniqlanadi;

7. Tuzilgan formula yoki reaksiya tenglamalarining va ularning koeffisientlari to'g'ri ekanligini tekshirib ishonch hosil qilish kerak bo'ladi;
  8. Formulalar va tenglamalar asosida hisoblashga doir masalalarni yechishda proporsiya, nisbat, formulalardan foydalaniladi;
  9. Masalalarni grafik usulda yechishda koordinatalar sistemasidan foydalaniladi;
  10. Moddalarning tuzilish formulalarini yozishda shu modda tarkibiga kiruvchi elementlarning valentliklari aniqlanadi;
  11. Moddaning tuzilishi, oddiy moddalarning yadro tarkibi, atomlardagi elektronlarning holati va oddiy moddalarning xossalarni o'rganishda
- D. I. Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasidan foydalanish tartibini o'rganish zarur;
12. Eksperimental masalalarni yechishda kimyo laboratoriyalarida ishslash qonun-qoidalariga rioya qilish kerak.

### **Kimyodan masalalar yechishning kimyo o'qitishdagi ahamiyati.**

Kimyo fanidan masala yechishni bilish predmetni ijodiy o'zlashtirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Shuning uchun bitiruv imtihonlarida va oliy o'quv yurtlarida kirish imtihonlarida imtihon savollariga hamma vaqt masalalar va avvalo hisoblashga doir masalalar kiritiladi. Bu predmetni o'rganish jarayonida bilimlarni tekshirishning qulay usuli va ularni mustahkamlashning muhim vositasidir.

### **I.R.Asqarov, M.A.Bahodirov, K.G', G'opirov Kimyodan masala va mashqlar yechish usullari.Toshkent-2010."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"**

O'quvchilarning kimyo fanidan olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun masala va mashqlarni mustaqil ishlay olishlari muhim ahamiyatga ega.Birmuncha qiyinroq, biroq oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar darslik doirasidan chiqmaydigan masalalar odatda, kimyo fani bo'yicha birmuncha yuqori talablar qo'yiladigan kimyo, biologiya, tibbiyot va boshqa oliy o'quv yurtlaridagi kirish imtihonlarida

foydalilaniladi.Kimyoviy formulalar va tenglamalar bo'yicha hisoblash bilan bog'liq masalalarni yechishda ko'pgina boshqa masalalar to'plamlaridan batafsil ko'rib chiqiladigan proportsiyalar tuzish metodidan emas balki, moddaning miqdori tog'risidagi tushunchalardan foydalilaniladi. Kimyo fanini o'rganish muvoffaqiyatli chiqishi uchun har qanday ya'ni oddiy va murakkab masalalarni qunt bilan o'rganish, shuningdek ularning yetarlicha miqdorini mustaqil yechish lozim.

### **Sereda I.P. Ximiyanidan konkurs masalalari.-Toshkent: O'qituvchi,1978.**

Masalalarni yecha bilish maktab, litsey va kasb-hunar kollej o'quvchilariga, shuningdek, oliv o'quv yurtlari talabalarining ko'pgina kimyoviy protsesslar va qonuniyatlarni chuqur o'rganishlari va tushunib olishlariga imkon beradi.Afsuski, masalalar yechishga hamma vaqt ham yetarlicha e'tibor berilavermaydi Oliy o'quv yurtiga kiruvchilar uchun mo'ljallangan ko'pgina qo'llanmalarda masalalar yechish ikkinchi darajali vazifa deb qaraladi; har xil tip masalalarning xususiyatlariga hamda ularni yechish metodikasiga diqqat jalgan etilmaydi.

**G.P.Xomchenko –Toshkent "O'qituvchi 2001".**Kimyo fanini ajoyib o'zgarishlar industriyasi deyish mumkin. U tabiatda bo'lmaydigan materiallarni sintez qilishga, ulardan turli-tuman mashina va asboblar yaratish uchun, turar joy binolari qurish va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish uchun foydalanishga imkon beradi. Kimyo sanoati sintetik kauchuk, plastik massalar, suniy tola, suniy yoqilg'i, bo'yoqlar, dori-darmonlar va boshqa juda ko'p moddalar ishlab chiqaradi. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, ularni o'sishini tartibga soluvchi moddalar, hayvonlar ozig'iga qo'shiladigan kimyoviy moddalar va oziq konservantlari ko'pchilik polimer materiallar keng ko'lamda ishlatiladi.

### **O.M.Yoriyev, M.S.Sharipov, H.N. Mavlyanov, A.R. Hafizov "Umumiy va noorganik kimyodan masala va mashqlar to'plami" O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati nashryoti Toshkent-2008.**

Kimyoviy masalalarning xili juda ko'p bo'lib, ularning ko'pchiligi hisoblashga doir masalalardir.Bu masalalar umumiy kimyoning asosoiy qismiga taaluqli bo'lib, nazariy hamda tavsifiy ma'lumotlarni o'rganish bilan uzviy bog'liqdir.Kimyoviy masalalrni yechish kimyo fanini ilmiy nazariy bilim, asoslarini egallashning muhim

omilidir.U yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishda ularning nazariy bilim va tushunchalrini mustahkamlashda hamda bu bilimlarni amalda tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi.Masala yechish o'quvchi va talabalarda mehnatsevarlik, qat'iylik, ma'suliyatni his etish, mustaqillik, mantiqan fikrlash, iroda va xarakter hamda qo'yilgan maqsadga yetishishga erishish kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

**Goldfarb Ya.L., Xodakov Yu.V., Dodonov Yu.B. Ximiyadan masala va mashqlar to'plami.** – T.: O'qituvchi, 1993. Kimyoni chuqur bilish xalq xo'jaligining turli sohalardagi mutaxassislar uchun zarurdir. Kimyo fizika va matematika fanlari bilan bir qatorda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosini tashkil etadi. Tabiatda inson paydo bo'lishi bilan unda tabiatni, atrof-muhitni o'rganishi va undan foydalanish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Hayotning rivojlanishi insonning o'zi va atrof-muhitni o'rabi turgan borliqni o'rganishga intilishi natijasida tabiat va jamiyat to'g'risidagi fanlar kelib chiqadi. Shunday aniq fanlar qatoriga kimyo fani kiradi, atrofdagi barcha borliqni uni tashkiliy qismlarini moddalardan deb qaraydi. Moddalarni o'rganish bilan borliqni o'rganadi. Shu sababli kimyo moddalarni tarkibi, tuzulishi, xossalarni ularning bir turdan boshq turga o'tishi sabab va qonuniyatlarini o'rganadigan fandir.

**Muftaxov A.G. Ximiyadan olimpiada masalalari va ularning yechimlari.-**  
**Toshkent:O'qituvchi,1993.**Kimyoviy maslalarni yechish kimyo fanini ilmiy nazariy bilim asoslarini egallashning muhim omilidir. U yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishda ularning nazariy bilim va tushunchalarini mustahkamlashda hamda bu bilimlarni amalda tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi Olimpiada masalalari bunday talablarni ko'plab amalga oshirishni,ko'tarilgan masalaga chuqur yondoshishni o'quvchi yoshlar uchun odat bo'lib qolishni amalga oshirishni ta'minlovchi muhim vositadir

**Abramov M.D Teshaboyev S.T. Ximiyadan hisoblashga doir masalalar yechish –T O'qituvchi 1979.** Kimyoning predmeti moddadir. Kimyo boshqa aniq fanlar: fizika, matematika, biologiya, geologiya va ijtimoiy fanlar: falsafa, ekologiya, iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganadi. Kimyoning fan sifatida shakillanishida va rivojlanishi quyidagi uchta tarkibiy

qism:

- a. Kuzatishlar, tadqiqotlar, dalillar
- b. Tushunchalar, nazariyalar , qonunlar
- v. Amaliyot mushtarakligi mahsulidir.

Bu mushtaraklikning shunday sohalari borki, ular bilan bog'liq muammolarning yechimi tabiiy ravishda fizikaviy bilim, matematik fikrlash va hisoblash, biologik ma'lumot, iqtisodiy tushunchalarni talab qiladi. Shuning uchun, kimyoni o'rghanishda yuqoridagi fanlarni bilish shart, kimyo fanidan shu kungacha olgan va hozir olayotgan bilim doiramiz qanchalik kengayib borsa, shu fan bo'yicha yana bilishimiz kerak bo'lgan muammolar shunchalik ko'payib boradi. Shunga asoslanib kimyo fanini o'rghanishdan maqsad:

- Shu kungacha kimyo fanida mavjud bo'lgan tushuncha, nazariya va qonunlarni o'rganib, uning mohiyatiga yetish. Kimyoviy hisoblashlarni bajarish.
- Kimyoviy tajribalarni rejalashtirish, ularni amalga oshirish va bajarish uchun kerak bo'lgan moddalar, jihozlardan foydalana olish bo'yicha yetarli darajada ko'nikmalar oshirishdan iborat.
- Kimyoviy axborotlar yig'ish va ularni o'zaro ayriboshlash tajribasi va ko'nikmalariga ega bo'lisch.
- Olingan bilim va ko'nikmalardan zarur hollarda va kasb faoliyati davomida hamda kundalik hayotda talab darajasida foydalana olishdan iborat.

Kimyodan masala yechishni bilish o'rta maktab o'quvchilarining amaliy hayotda zarur bo'ladigan eng muhim malakalaridan biridir. Ba'zan, kimyoviy maslalar degan so'zdan asosan miqdoriy masalalar tushuniladi. Sababi amaliy hayotda shunday masalalar yechishga to'g'ri keladi. Ammo kimyo fanida sifatga oid masalalar kimyoviy tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlargacha oid masalalar ancha katta ahamiyatga ega. Bu masalalar o'qituvchining o'quvchilar nazariy tayyorgarlik darajasini ancha oson bilib olishi, moddalar va ularning o'zgarishi to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlashi hamda chuqurlashtirishi, nazariy bilimlarni amalda tadbiq etishi, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishi, o'quvchilarda kimyoviy tafakkur hosil qilishi uchun imkoniyat berdi. O'quvchilar kimyoviy masalalarni

doimo, dars davomida aniq ma'lum tartibda (asta-sekin murakkablashib boradigan sistemada) yechib borganlari taqdirdagina o'quvchilarda kimyoviy masalalar yecha bilish qobilyatini muvoffaqiyat bilan hosil qilish mumkin.

Kimyoviy masalalar klassifikatsiyasining ba'zi variantlariga misollar keltiramiz:

1. *Miqdoriy masalalar*. Moddalarning formulalarini tuzish, valentligi asosida tuzish, kimyoviy tuzulish nazariyasi asosida tuzish, analizdan olingan ma'lumotlar asosida, elementlarning % bilan ifodalangan miqdoriga, moddalarning gazsimon holatdagi zichligi yoki og'irligiga qarab tuziladi.

2. *Formulalar bo'yicha hisoblash*: Moddaning miqdoriy tarkibini har xil ifodalarda hisoblash, moddaning miqdoriy tarkibini shu moddadagi qo'shimchalarni hisobga olgan holatda toppish, gazsimon moddalarning vodorodga nisbatan va havoga nisbatan zichligini toppish, moddalarning molekulyar og'irligini topishdan iborat.

3. *Kimyoviy tenglamalar tuzish*: koeffisentlar qo'yib tuzish, molekulyar va ionli ko'rinishda tuzish, oksidlanish-qaytarilish tenglamasi bo'yich hisob kitoblarni amalga oshirib tenglamalar tuzishdan iborat.

4. *Kimyoviy tenglamalar bo'yicha*: moddalar massasini saqlanish qonuni bilan bog'liq hisoblash, reaksiyaga kirishuvchi moddalarning hajmi bilan ifodalangan miqdorini hisoblash.

5. *Eritmalarga doir hisoblashlar*: har xil temperturalarda, erigan modda va erituvchi niqdorlarini hisoblash, zarur bo'lган konsentratsiyali eritma tayyorlash uchun, eritma konsentratsiyasining o'zgarishi bilan og'liq bo'lган hisoblar.

*Sifatga oid masalalar.*

1. Moddalarni bilib olish: ayni moddaga xos reaksiyalar, moddaning qanday elementlardan tashkil topganlanligi.

2. Moddalarni tozalash: aralashmadan aytilgan moddani toppish va isbotlash, aralashmadan moddaning o'ziga xos fizik va kimyoviy xossalariiga asoslanib ajratish.

3. Moddani hosil qilish: bir yoki bir necha moddadan, dastlabki moddalarni ketma-ket o'zgartirish yo'li bilan, maxsus asbobdan foydalanib modda hosil qilish.

4. Moddalarning klassifikatsiyasi: ayni bir sinfga kiradigan moddalarning A) empirik B) struktura formulalari, ayni bir sinfga kiradigan moddalar uchun xos reaksiyalar.

1. Kimyoviy tushunchalar, masalan: hodisalar, aralashmalar va toza moddalar, oddiy va murakkab moddalar; molekula va atom, oksidlanish-qaytarilish, ekzotermik-endotermik va hokazo.
2. Davriy qonun va atomlarning tuzilishi: kimyoviy elementlarning xossalarini davriy sistemadagi o'rniga qarab aniqlash.

### **Kimyodan masalalar tahlili.**

*Masalalarni kimyoviy o'lchovlardan foydalanib yechish.*

Kimyoviy masalardan moddaning miqdori, odatda maxsus kimyoviy o'lchovlar: gramm-molekula va gramm-atomlarda emas, balki og'irlik yoki hajm birliklarida ifodalanadi. Ammo reaksiyaga kirishuvchi moddalarning bir-biriga nisbati to'g'risidagi tassavurni faqat kimyoviy o'lchovlargina beradi: 1kg H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va 1kg H<sub>4</sub>P<sub>2</sub>O<sub>7</sub> kimyoviy nuqtai nazardan olganda bir xil miqdorlar emas, bu og'irlik miqdor moddalardan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> dan 10.2 gramm molekulasi (1000/98=10.2), H<sub>4</sub>P<sub>2</sub>O<sub>7</sub> dan 5.6 gramm molekula (1000/178=5.6) kimyoviy reaksiyaga kirishadi.

O'quvchilarda kimyoviy tafakkurni tarbiyalash maqsadida masalalarni yechishda kimyoviy o'lchovlardan foydalanishni talab qiladi.

1. Kimyoviy formulalar bo'yicha hisoblash .

**Masala:** 40 gr Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> da necha gramm temir bor? Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning og'irligi:

$$56 \cdot 2 + 16 \cdot 3 = 160 \quad n = \frac{m}{M}; \quad \frac{40}{160} = 0,25 \text{ mol};$$

$0,25 \cdot 112 = 28$ gr Demak; oksid tarkibida 28gr Fe bor.

## *Kimyoviy masalalarda matematikadan foydalanish.*

Kimyoviy masalalar yechishda ko'pgina hollarda shunday matematik usullardan foydalilanadi, bu usullar hozirgi zamon matematikasiga zid bo'ladi. Masalan: kimyo darslarida murakkab moddaning % bilan ifodalangan tarkibini aniqlashga oid hisoblar qilinadi. Masalan:  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  birikma tarkibidagi Fe ning % ulushini topish uchun quyidagi proporsiya "krest qoidasi" ga asoslanib yechiladi.

$$160 — 100 \%$$

$$112 — x \%$$

Matematiklar esa % ni topish uchun, ma'lumki ayni son hamma sonning qanday qismini tashkil etishini topadilar.

### *Kimyoviy formula topishga oid masalalar yechish*

**Masala:** 9,3 g ishqoriy metall oksidi 200 g suvda eritilganda hosil bo'lган birikmaning massa ulushi 5,73% ni tashkil qilsa, oksid tarkibidagi metallni toping.

**Yechish:** Bizga ma'lumki, ishqoriy metall oksidi suvda eritilganda, tegishli asoslar hosil bo'ladi. Bundan tashqari, ishqoriy metallar I-gruppaning asosiy gruppacha elementlari bo'lib, ular I-valentli aktiv metallardir. Shu ma'lumotlar asosida masalani quyidagicha ishslash mumkin bo'ladi:

1) Hosil bo'lgan eritmaning massasini topamiz;

$$\mathbf{m(eritma)} = \mathbf{m(ishqoriy metall oksidi)} + \mathbf{m(suv)} = 9,3 \text{ g} + 200 \text{ g} = 209,3 \text{ g}$$

2) Umumiylar reaksiya tenglamasini tuzamiz (bunda ishqoriy metall umumiylar formulasidan foydalilanadi);



3) Reaksiya tenglamasiga muvofiq, jarayonda asos hosil bo'lib, masala shartida berilgan 5,73% shu moddaning ulushidir. Bundan foydalanib uning masasini quyidagicha topish mumkin bo'ladi.

$$m(\text{MeOH}) = m(\text{eritma}) \cdot 5,73\% = 209,3 \cdot 5,73\% = 11,99289 \text{ g}$$

4) Reaksiyaning umumiy tenglamasidan foydalanib, jarayonda gaz modda yoki cho'kma moddalarning (eritma massasini kamaytirmaydigan holatlar) hosil bo'limganligi, hamda reaksiyada bizga ma'lum suvdan foydalanib, masalani quyidagicha ishlaymiz;

$$m(\text{H}_2\text{O}) = m(\text{MeOH}) - m(\text{Me}_2\text{O}) = 11,99289 - 9,3 = 2,69289 \text{ g}$$



$$9,3 \text{ g} -- 2,69289 \text{ g}$$

$$x \text{ g} -- 18 \text{ g} \quad x = 62,163697 \text{ g}$$

5) Demak,  $\text{Me}_2\text{O}$  ning molyar massasi 62,163697 g bo'lsa, undan noma'lum elementni quyidagicha topish mumkin;


$$m(\text{Me}_2) = m(\text{Me}_2\text{O}) - m(\text{O}) = 62,163697 - 16 = 46,163697$$

$$\text{Me} = \text{Ar}(\text{Na}) = 23$$

*Kimyoviy jarayonlar energetikasi. Issiqlik effekti. Entalpiyaga oid masalalar yechish*

**masala:**  $\text{CaO}$  va  $\text{CO}_2$  larning hosil bo'lish issiqliklari tegishlicha 635,1 kJ va 393,5 kJ gat eng bo'lsa,  $\text{CaCO}_3$  ni hosil bo'lish issiqligini hisoblang.

**Yechish:**



Reaksiya uchun Q topilishi kerak.



$$\text{Hisoblaymiz: } Q = 145,3 \text{ kJ} + 635,1 \text{ kJ} + 393,5 \text{ kJ} = 1173,9 \text{ kJ}$$

Demak,  $\text{CaCO}_3$  ning hosil bo'lish issiqligi 1173,9 kJ ga teng.

*Kimyoviy bog'lanish va moddalarning tuzulishiga oid masalalar yechish.*

**masala:** Agar  $\text{J}_2$  va  $\text{Cl}_2$  molekulalarida yadrolar orasidagi uzunlik  $2,67 \cdot 10^{-10}$  va  $1,99 \cdot 10^{-10}$  ga teng bo'lsa,  $\text{J}-\text{Cl}$  molekulasidagi bog' uzunligi qanchaga tengligini hisoblang?

**Yechish:** bu masalani ishslashda quyidagi formuladan foydalanamiz;

$$d_{A-B} = \frac{dA - A + dB - B}{2}$$

$$\text{hisoblaymiz: } \frac{d\text{Cl}_2 + d\text{J}_2}{2} = \frac{(1,99 + 2,67) \cdot 10}{2} = 2,33 \cdot 10^{-10}$$

Demak:  $\text{JCl}$  ning bog' uzunligi  $2,33 \cdot 10^{-10}$

*Kimyoviy reaksiyalar muvozanatiga oid hisoblashlar*

**masala:**  $\text{A} + \text{B} = \text{C} + \text{D}$  reaksiyasi bo'yicha dastlab 6:3:9:2 mol nisbatda olindi. So'ngra B ga 3 mol qo'shilgach A va D dan qancha mol hosil bo'ladi?

**Yechish :** muvozanat konstantasini topish formulasidan foydalanamiz;

$$K = \frac{[C] \cdot [D]}{[A] \cdot [B]}, \quad K = \frac{9 \cdot 2}{6 \cdot 3} = 1 \quad \frac{18 + 11x + x^2}{36 - 12x + x^2} = 1$$

$$18 = 23x \quad x = 0,7$$

Demak:  $A = 6 - 0,738 = 5,217 \text{ mol}$   $D = 2 + 0,738 = 2,738 \text{ mol}$

*Kimyoviy reaksiyalar kinetikasiga oid hisoblashlar*

**masala:**  $30^{\circ}\text{C}$  da 2 ta reaksiya tezligi bir xil.birinchi reaksiyaning harorat koeffisenti 3 ga ikkinchisiniki esa 4 ga teng. $60^{\circ}\text{C}$  da  $v_2$  tezlik  $v_1$  ga nisbatan qanchaga teng ?

**Yechish:** Formula  $\frac{V_2}{V_1} = L \frac{t_2 - t_1}{10}$        $L_1=3$ ;       $L_2=4$     orqali


$$\text{Hisoblaymiz } V_1 = 3 \frac{60-30}{10} = 27 \quad V_2 = 4 \frac{60-30}{10} = 64$$

Demak: Tezliklar nisbati:  $\frac{V_2}{V_1} = \frac{64}{27} = 2,37$  ga teng bo'ladi.

### **Kimyodan masalalar yechish fanlararo bog'lanish**

Tabiiy matematika fanlari turkumi o'quvchilarga tirik va tirik bo'lмаган табиат, дунёning моддијији бирлиги, табиий бојликлар ва улардан инсоннинг иқтисодији фаолиятидаги фойдаланиш хақида ма'lумот беради. Ушбу фанлarning умумиј о'кув vazifalari талабалarning dialektik-materialistik dunyoqarashini, politexnik bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga, shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishiga qaratilgan. Табиат rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, materiya harakatining individual shakllarining xususiyatlarini va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishga asoslanib, o'qituvchilar talabалarning дунёning tabiatshunosligi haqidagi zamonaviy g'oyalarini shakllantiradilar.

Табиатшунослик fanining barcha fanlarini o'rganish matematika bilan uzviy bog'liqdir. Matematika o'quvchilarga insonning kundalik hayotida va ishida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimini beradi, shuningdek, tegishli fanlarni (fizika, kimyo, chizmachilik, mehnat ta'limi va boshqalar) o'rganish uchun muhimdir.



Matematikadagi bilimlar asosida o'quvchilar umumiyligi mavzularini hisoblash va o'lchash ko'nigmalarini shakllantiradilar. Matematikani o'rganish fizika, kimyo, informatika, biologiya va iqtisodiyot kurslari bilan uzviy bog'liqlikka asoslanadi. Shu bilan birga, bu talabalar tomonidan olingan matematik bilim va ko'nikmalarning amaliy qo'llanilishini ochib beradi, bu dunyoni tushunishning umumlashtirilgan usuli sifatida talabalar o'rtasida ilmiy dunyoqarash, g'oyalar va matematik modellashtirishni shakllantirishga yordam beradi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, matematika va kimyo o'rtasidagi fanlararo aloqani amalga oshirayotganda, matematikani o'qitish matematikada kimyonni o'rganish bilan almashtirilmasligi kerak, aksincha, matematikani o'qitishni kimyodan olingan misollar asosida, yo'naltirilgan tizimli tizim asosida takomillashtirish kerak. mazmuni kimyoga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan misollar va mashqlar orqali kimyo bilan aloqada bo'lishi lozim. Bunday holda, savol tug'iladi: "Kimyo kursidan olingan misollar va topshiriqlarning mazmuni nimada bo'lishi kerak, shunda u bir tomonidan matematikani o'qitish bilan mos keladi, boshqa tomonidan esa matematika va kimyo o'rtasidagi fanlararo aloqani amalga oshirishga qaratilgan?" bo'ladi.

### **Miqdor va sifatga oid masalalar**

Atom-molekular ta'lilot asosida kimyoning asosiy qonunlarini: moddalar massasining saqlanish qonuni, tarkibning doimiylik qonuni, hajmiy nisbatlar qonuni va Avogadro qonunini ko'rib chiqamiz. Bu qonunlar atom-molekular ta'linitni —

yangi kimyoning asosini tasdiqlaydi. Atom-molekular talimot, o'z navbatida, kimyoning asosiy qonunlarini tushuntirib berdi.

Moddalar massasining saqlanish qonunini dastlab 1748-yil-da M.V.Lomonosov ta'riflab bergen. Keyinchalik (1756-yilda) u bu qonunni tajribada asoslab berdi. Qonunning hozirgi ta'rifi quyidagicha:

**kimyoviy reaksiyaga kirishadigan moddalarining massasi reaksiya natijasida hosil bo'ladigan moddalarining massasiga teng.**

Lomonosovdan keyin mustaqil ravishda bu qonunni 1789 - yilda fransuz kimyogari Lavuazye ham ta'riflab berdi. U ham metallarning oksidlanishiga doir ko'p reaksiyalarni o'rganib, qonunni tajribada isbotladi.

Moddalar massasining saqlanish qonunini atom-molekular ta'limot nuqtayi nazaridan shunday izohlash mumkin: kimyoviy reaksiyalarda atomlar yo'qolmaydi va yo'qdan vujudga kelishi mumkin emas; reaksiyagacha va reaksiyadan keyin atomlarning umumiy soni o'zgarmasligicha qoladi. Masalan, vodorod bilan xlorning ikki atomli molekulalari o'zaro ta'sir ettirilganda shuncha HCl molekulasi hosil bo'lishi kerakki, vodorod bilan xlor atomlarining soni ikkiga teng bo'lsin, ya'ni ikki molekula HCl hosil bo'lishi kerak. Atomlarning massasi o'zgarmaganligi sababli moddalarining reaksiyagacha va reaksiyadan keyingi massalari ham o'zgarmaydi. Moddalar massasining saqlanish qonunini M.V.Lomonosov energiyaning (harakat miqdorining) saqlanish qonuni bilan bo'ladi. U bu qonunlarni birgalikda, tabiatning umumiy qonuni sifatida qaradi va 1784-yilda quyidagicha ta'rifladi: „Tabiatdagi barcha o'zgarishlarning mohiyati shundan iboratki, bir jismdan qancha olinsa, boshqasiga shuncha qo'shiladi. Masalan, agar qayerdadir materiya biroz kamaysa, boshqa joyda ko'payadi. Bu umumiy tabiiy qonun harakat qoidalariga ham taalluqlidir: o'z kuchi bilan boshqa jismni harakatlantirayotgan jism harakat olayotgan jismga qancha kuch bersa, o'zidan shuncha kuch yo'qotadi".


Shunday qilib, moddalar massasining saqlanish va energiyaning saqlanish qonunlari — bular tabiatning yagona qonuning — materiya va uning harakatining abadiylik qonuning ikki tomonidir.

Moddalar massasining saqlanish qonuni kimyoviy reaksiyalarning tenglamalarini tuzish uchun moddiy asos beradi. Unga asoslanib, kimyoviy tenglamalar bo'yicha hisoblashlar o'tkazish mumkin.

Fosfor mo'l miqdordagi kislrororra yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 540 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.

### **Yechim:**


NaOHni 1 mol va H<sub>2</sub>Oni 6,5 mol deb aralashmani jami 7,5 mol deb olsak, modda massasi 72 g bo'ladi.



200g 9,8% li fosfat kislota eritmasi massasi topiladi.

$$2) 200 \cdot 9,8\% = 19,6 \quad 19,6 / 98 = 0,2 \cdot 3 = 0,6 \text{ mol}$$

Ishqor va kislotaning miqdori topiladi va nisbatiga qarab, tuz formulasi chiqariladi.





Mol nisbatlari mos ravishda 3:2:1 bo'lgan etin, eten va etandan iborat aralashma 6,4 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadiagi bromning

massasi suvning massasidan 49 martta kichik bo'lsa, reaksiya uchun olingan etan massasini (g) aniqlang.

### **Yechim:**

Etin 2 mol bromli suvni, eten esa 1 mol bromli suvni rangsizlantiradi.



Brom va suvni molini 50 mol deb olsak, 128g brom 0.8 molni egallaydi.

$$\begin{aligned} 3) \text{C}_2\text{H}_6 & 6 + 2 = 8 \text{ mol Br}_2 \\ & 8 \text{ mol} - 1 \text{ mol} \\ & 0,8 \text{ mol} — x = 0,1 \text{ mol} \\ & \text{C}_2\text{H}_6 \cdot 30 = 3 \text{ g} \end{aligned}$$

He , Ne va Ar dan iborat 17,92 litr (n.sh) aralashma tarkibidagi Ne ning hajmi He va Ar hajmlari yig'indisidan 3 marta kichik bo'lsa , He ning massasini hisoblang. ( $\omega(\text{Ar})= 0,4$ )

$$\begin{aligned} \text{Yechim: He } x & \quad \frac{17,92}{22,4} = 0,8 \text{ mol} \quad \begin{cases} x + z = 3y \\ x + z = 0,8 - y \end{cases} \\ \text{Ne } y &= 0,2 \quad 3y = 0,8 - y \\ \text{Ar } z & \quad 4y = 0,8 \quad / \quad y = 0,2 \end{aligned}$$

$$M = n \cdot Mr = 0,2 \cdot 20 = 4$$

$$\frac{40z}{4x+40z+4} = 0,4$$

$$40z = 1,6x + 16z + 1,6$$

$$\begin{cases} x + y = 0,6 [ \cdot 1,6 ] \\ 1,6x - 24z = -1,6 \\ x = 0,5 \quad z = 0,1 \\ n = 0,5 \cdot 4 (\text{He}) = 2 \text{ He} \end{cases}$$

Birikmalarida oksidlanish darajalari 2 va 3 bo'lgan ikkita metall aralashmasining 11.9 gr miqdori HCl kislotaning mo'l miqdorida eritilganda 8.96 litr gaz ajraldi. Agar metallardan birining atom massasi ikkinchisiga nisbatan 2.4 marta kattaroq, ularning aralashmadagi atomlarining soni 2 : 1 nisbatda bo'lsa, metallarni aniqlang.

## **Yechim:**


Oksidlanish darajasi 2 bo'lgan metall quyidagicha reaksiyaga kirishadi.

$$x=0.1 \text{ ----- } 0.1 \text{ mol}$$



Oksidlanish darajasi 3 bo'lgan metall quyidagicha reaksiyaga kirishadi.

$$x=0.2 \text{ ----- } 0.3 \text{ mol}$$



$$2 \text{ mol} \text{ ----- } 3 \text{ mol}$$

Xosil bo'lgan 4 mol  $\text{H}_2$  ni  $4x$  bilan belgilasak

$$4x=0.4 ; x = 0.1 \text{ mol } \text{H}_2 \text{ Me}_1 \text{ dan xosil bo'lyapti}$$

0.3 mol  $\text{H}_2 \text{ Me}_2$  dan xosil bo'lyapti

$$0.1\text{Me}_1 + 0.2\text{Me}_2 = 11.9$$

$$0.1 \cdot 2.4\text{Me}_2 + 0.2\text{Me}_2 = 11.9 \quad \frac{\text{Me}_1}{\text{Me}_2} = 2.4 \text{ yoki} \quad \frac{\text{Me}_2}{\text{Me}_1} = 2.4$$

$$0.44\text{Me}_2 = 11.9$$

$$\text{Me}_2 = 27 \text{ (Al)}$$

$$\text{Me}_1 = 2.4\text{Me}_2$$

tenglamadagi  $\text{Me}_1$ ni o'rniga qo'ysak


$\text{Me}_1$  aniqlash uchun formuladagi

$\text{Me}_2$  ni o'rniga qo'yib xisoblaymiz

$$\text{Me}_1 = 2.4 \cdot 27 ; \text{Me}_1 = 65 \text{ (Zn)}$$

**Javob:** Al va Zn

$A(g) + B(g) \leftrightarrow 2C(g)$  sistemada boshlang‘ich moddalardan 3 mol/l dan olingan. Ushbu sistemada kimyoviy muvozanat ( $K_m=4$ ) qaror topgandan so‘ng moddalarning konsentratsiyalari yig‘indisini (mol/l) aniqlang



$$4 = \frac{2x^2}{(3-x)(3-x)}$$

$$36x - 24x - 4x^2 = 4x^2$$

$$X = 1.5$$

$$1.5 + 1.5 + 3 = 6$$

### ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

1. 22,5 g aminokislota bilan to‘la reaksiyaga kirishish uchun NaOH ning 120 g eritmasi sarflandi. Agar natriy gidroksid eritmasi tarkibida  $12,3 \cdot N_A$  ta vodorod atomi mavjud bo’lsa, aminokislotani aniqlang.

j: glitsin

2. 1,75 mol glyukozaning glitserinli bijg’ishi natijasida ( $\eta=0,8$ ) hosil bo’lgan  $CO_2$  ning atomlar sonini aniqlang.

j:  $4,2 \cdot N_A$

3. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang‘ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang‘ich aralashma bromli suvdan o’tkazilganda 66,2 g cho’kma tushishi ma’lum bo’lsa, dastlabki aralashmadagi propanol massasini (g) aniqlang.

j: 24

4. O’zaro izomer bo’lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol  $CO_2$  gazi, 0,2 mol benzoy kislotasi va 0,4 mol tereftal kislotasi hosil bo’ldi. Benzoy kislotani hosil qilgan aromatik uglevodorod massasini (g) aniqlang.

j: 26,8

5. Necha gramm triakontan tarkibida  $0,15 \cdot N_A$  ta uglerod atomi bor?

j: 2,11

6. Mis (II) nitrat kristallogidrati tarkibida kislorodning massa ulushi vodorodnikidan 24 marta katta bo’lsa, bir mol tuzga necha mol suv to’g’ri keladi.

j: 3

7. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va  $N_2O$  larning hajmlari teng bo’lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.

**j:3:8**

**8.** Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 20 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.

**j:** butan

**9.** Noma'lum alkan stexiometrik nisbatda olingan kislorodda yondirilganda hosil bo'lgan moddalar miqdorining dastlabki moddalar miqdoriga mol nisbati 1,2 ga teng bo'lsa, alkanni aniqlang.

**j:**butan

**10.** 0,03 mol  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,28 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.

**j:** 2:1

### **Ekperimental masalalar**

Nazariyani amaliyot bilan bog'lashning yo'llaridan biri eksperimental masalalar yechishdir. Eksperimental masalalarning harakterli hususiyati, ularni yechishda labaratoriya yoki demonstratsion eksperimentdan foydalilanadi. Masala yechishda eksperimentdan foydalansha, bunday masalalar eksperimental masalalar deyiladi.eksperimental masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarining faolligi va mustaqilligi oshadi. Eksperimental masalalarning yana bir afzalligi shundaki, bu masalalarni yetarlicha fikrlamasdan turib yechib bo'lmaydi. Ya'ni tajribada sodir bo'ladigan hodisalarni o'quvchilar keng mushokama qilib olishlari kerak.chunki eksperimental masalalarda, labaratoriya ishlariga o'hshatib nazariya berilmaydi, ishni bajarish tartibi ko'rsatilmaydi. Kerakli asbob-uskunalar, materiallar berilib, topilishi kerak bo'lgan ma'lumot so'ralishi bilan kifoyalanadi.yuqorida aytganimizdek o'quvchilar qator fikr va muloshazalardan, eksperimentda qanday hodisa yotganini, qanday qonun ifodalanayotganligini bilib oladilar.

Noma'lum alken gidrogenlanganda 43,5 g mahsulot olindi, yetarli kislorodda yoqilganda esa 132 g modda hosil bo'ldi. U bromlanganda necha gramm dibromalkan hosil bo'ladi?

**Yechim:**

$$\begin{aligned}\frac{14n+2}{44n} &= \frac{43,5}{132} \\ 1848n + 264 &= 1914 \\ n = \frac{43,5}{58} &= 0,75 \\ n &= 4\end{aligned}$$



$$216 \cdot 0,75 = 162$$


Laboratoriyada NaCl va NaI aralashmasi bor. Bu aralashmaning 104,25 gram suvda eritildi va xosil qilingan eritma orqali mo'l xlor gazi o'tkazildi, so'ngra eritma quriguncha bug'latildi va qoldiq doimiy massaga kelguncha 300 °C da qizdirildi. Quruq moddaning massasi 58,5 gramm. Dastlabki aralashmaning foiz tarkibini aniqlang.

**Yechim:**

$$58,5 \text{ gr NaCl} ----- 150 \text{ gr NaJ} = 208,5 \text{ gr aralashma}$$

$$x = 75 \text{ g} ----- 104,25 \text{ gr aralashma}$$

$$75 \text{ gr} ----- x = 29,25$$



$$300 \text{ gr} ----- 117 \text{ gr} \quad 104,25 - 29,25 = 75 \text{ gr NaJ}$$

$$\omega = \frac{29,25}{104,25} * 100 = 28,06 \% \text{ NaCl}$$

$$\omega = \frac{75}{104,25} * 100 \% = 71,9 \% \text{ NaJ}$$

***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

1. Kaliy alyuminiyli achchiqtosh  $\text{KAl}(\text{SO}_4)_3 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  tarkibida Al atomlar soni  $2.26 \cdot 10^{23}$  ta va kislorod atomlar soni  $5.428 \cdot 10^{24}$  ga teng bo'lsa n qiymatini toping?

j:12

**2.** Kaliy nitrat, kaliy yodid va kaliy xloriddan iborat aralashmaning 68,3 gram miqdori eritildi va xlorli suv bilan ishlandi. Natijada 25,4 gramm yod ajralib chiqdi. Xuddi shunday eritma kumush nitrat bilan ishlanganda 75,7 gramm cho'kma hosil boldi. Dastlabki aralashmaning tarkibini aniqlang.

**j:** 33.2 KJ; 14.9 gr KCl; 20.2 gr  $\text{KNO}_3$

**3.**  $\text{CaCO}_3$ ,  $\text{ZnS}$  va  $\text{NaCl}$  aralashmasi berilgan. Shu aralashmaning 40 gramm miqdoriga mo'l vodorod xlor ta'sir ettirilganda 6,72 litr gaz ajralib chiqdi, bu gaz mo'l  $\text{SO}_2$  bilan tasirlashganda 9,6 gram cho'kma hosil bo'ldi. Dastlabki aralashma tarkibini aniqlang.

**j:**  $10 + 19.4 = 29.4$  (  $\text{ZnS} ; \text{CaCO}_3$  )  $40 \text{ gr} - 29.4 \text{ gr} = 10.6 \text{ gr NaCl bo'lган}$

**4.**  $\text{Na}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{NaNO}_3$  va  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  dan iborat aralashma berilgan. Shu aralashmaning 41,8 gramm miqdori 10 %li 98 gramm sulfat kislota eritmasi bilan qo'shib qizdirilganda 2,24 litr (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Hosil qilingan eritmaga  $\text{BaCl}_2$  qo'shilganda 46,6 gramm chokma hosil boldi. Dastlabki tuzlar aralashmasining tarkibini aniqlang.

**j:** 10.6 gr  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ; 17 gr  $\text{NaNO}_3$ ; 14.2 gr  $\text{Na}_2\text{SO}_4$

**5.** 32,05 gramm ruhning kuchlanishlar qatorida vodoroddan keyin turadigan metall bilan qotishmasiga mol miqdor suyultirilgan sulfat kislota tasir ettirildi. Bunda 4,48 litr (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Erimay qolgan qoldiqqa erigunga qadar konsentrangan sulfat kislota qo'shildi va bunda 6,72 lirt gaz ajralib chiqdi. Metall kationi ikki valentlliligi malum bo'lsa qotishmaning tarkibini aniqlang.

**j:** Zn va Cu qotishmasi

**6.** Tarkibida  $1,9264 \cdot 10^{24}$  ta  $\text{O}_2$  atomi tutgan  $\text{KMnO}_4$  va  $\text{KCLO}_3$  dan iborat aralashmaga  $\text{HCl}$  tasir ettirilganda 11,2 litr gaz ajraidi Dastlabki aralashmadagi moddalarning mol nisbatlarini toping. (  $\text{KClO}_3$      $\text{HCl}$  bilan ta'sirlashmaydi)

**j:** 1:4

**7.** 11,7 gr  $\text{NaCl}$ , saqlagan eritmaga tarkibida 9 gr dan ko'p bo'limgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  saqlagan eritma qo'shildi. Eritma bug'latildi va qizdirildi bunda, 13 gr quruq qoldiq qoldi. Qoldiq tarkibini (gr) da aniqlang.

**j:** quruq qoldiq 11.7 gr ( 48 %) = 5.616 gr  $\text{NaCl}$  ; 14.2 gr ( 52% ) = 7.384 gr  $\text{Na}_2\text{SO}_4$

**8.** Noma'lum II valentli metallning 19.4 gr sulfidini kuydirish uchun 6.72 litr (n.sh)  $\text{O}_2$  talab qilindi. Olingan gazsimon maxsulot katalizator ishtirokida oksidlandi va

suvda eritildi. Qanday metall sulfidi kuydirilgan va xosil bo'lgan kislotani neytrallash uchun KOH ning 33.6 % li eritmasidan ( $\rho = 1.33$  gr/ml) necha (ml) talab etiladi.

j: Zn ; 50 ml

**9.** Nazariy jihatdan 100 gr platinani geksa xlor platinat kislotaga aylantirish uchun 39 % li HCl ( $\rho = 1.19$ ) va 75 % li HNO<sub>3</sub> ning ( $\rho = 1.44$ ) qanday hajmlari talab etiladi. Xosil bo'lgan H<sub>2</sub>[ PtCl<sub>6</sub>] · H<sub>2</sub>O ning massasini hisoblang. Jarayon natijasida NO va NO<sub>2</sub> ekvimolyar aralashmasi xosil bo'ladi.

j: 60 ml; 242 ml ; 219.5 gr

**10.** Bir valentli metall gologenidi eritmasiga AgNO<sub>3</sub> eritmasidan ortiqcha miqdorda qo'shildi. Oq tusli o'g'izga o'xshash, HNO<sub>3</sub> da erimaydigan cho'kma hosil bo'ldi, bu cho'kmaning massasi 0,68 gr keldi. Galogenid tarkibida 47,6% xlor bo'lganligi ma'lum. Me ning atom massasini va galogenidning molekulyar massasini hisoblab toping uning formulasini chiqaring.

j: KCl

### **Kimyoning asosiy mavzulariga oid masalalar yechish**

*Tarkibning doimiylik qonuni kimyoning asosiy qonunlari qatoriga kiradi:**har qanday toza modda, olinish usulidan qaf'i nazar, o'zgarmas sifat va miqdoriy tarkibga ega bo'ladi.***

Masalan, uglerod (IV) oksid (karbonat angidrid) C0<sub>2</sub> ning tarkibini ko'rib chiqamiz. U uglerod bilan kisloroddan tarkib topgan (sifat tarkibi). C0<sub>2</sub> da uglerodning miqdori 27,27%, kislorodniki — 72,73% (miqdoriy tarkibi). Karbonat angidridni ko'p usullar: uglerod bilan kisloroddan; uglerod (II) oksid bilan kisloroddan sintez qilish, karbonatlarga kislotalar ta'sir ettirish va boshqa usullar bilan olish mumkin. Barcha hollarda toza uglerod (IV) oksid, olinish usulidan qat'i nazar, yuqorida keltirilgan tarkibga ega bo'ladi.

Atom-molekular ta'llimot tarkibning doimiylik qonunini tushuntirishga imkon beradi.

Atomlarning massasi tarkibi ham umuman o'zgarmas bo'ladi.

Tarkibning doimiylik qonunini dastlab fransuz kimyogar olimi J.Prust 1808-yilda tariflab berdi. U „Yeming bir qutbidan boshqa qutbigacha bo'lgan joydagি birikmalarning tarkibi bir xil va xossalari ham bir xil bo'ladi. Janubiy yarimshardagi temir oksid bilan Shimoliy

yarimshardagi temir oksid orasida hech qanday farq yo'q. Sibirdagi malaxitning tarkibi Ispaniyadagi malaxitning tarkibi bilan bir xil. Butun dunyoda faqat bir xil kinovar bor", deb yozgan edi.

Qonunning bu ta'rifida yuqorida keltirilgan ta'rifidagi kabi olinish usulidan va qayerda bo'lishidan qafi nazar, birikmaning tarkibi o'zgarmas, bo'lishi ta'kidlanadi.

Kimyoning rivojlanishi shuni ko'rsatadiki, *o'zgarmas tarkibli birikmalar* bilan bir qatorda, *o'zgaruv chan tarkibli birikmalar* ham bo'lar ekan. N.S.Kurnakovning taklifiga ko'ra o'zgarmas tarkibli birikmalar *daltonidlar* (ingliz kimyogari va fizigi Daltonning xotirasiga), o'zgaruvchan tarkiblilari — *bertollidlar* (shunday birikmalar borligini oldindan aytgan fransuz kimyogari Bertolle xotirasiga) deb ataladi. Daltonidlarning tarkibi butun sonli stexiometrik indekslari bor oddiy formulalar bilan ifodalanadi, masalan,  $H_2O$ ,  $HJ$ ,  $CCl_4$ ,  $C_0_2$ . Bertolitlarning tarkibi o'zgarib turadi va stexiometrik nisbatlarga muvofiq kelmaydi. Masalan, uran (VI) oksidning tarkibi odatda  $U_0_3$  formula bilan ifodalanadi. Haqiqatda esa uning tarkibi  $U_0_{2,5}$  dan  $U_0_3$  gacha bo'ladi. Olinish sharoitiga qarab, vanadiy (II) oksidningtarkibi  $VO_{0,9}$  dan  $VO_{1,3}$  gacha bo'lishi mumkin. Sirkoniy azot bilan o'zaro ta'sir ettirilganda sirkoniy nitrit hosil bo'ladi.  $ZrN$  tarkibli birikmadan tashqari  $ZrN_{0,59}$ ,  $ZrN_{0,69}$ ,  $ZrN_{0,74}$  va  $ZrN_{0,89}$  nitridlar ham bo'ladi. Bertollidlar oksidlar, gidridlar, sulfidlar, nitridlar, karbidlar (uglerodli birikmalar), silitsidlar (kremniyli birikmalar) va kristall strukturaga cga bo'lgan boshqa anorganik birikmalar orasida uchraydi.

O'zgaruvchan tarkibli birikmalar borligi munosabati bilan tarkibning doimiylilik qonunining hozirgi ta'rifiga aniqlik kiritish kerak bo'ladi.

**Molekular strukturali, ya'ni molekulalardan tuzilgan birikmalarning tarkibi, olinish usulidan qat'i nazar o'zgarmas bo'ladi, nomolekular strukturali (atomli, ionli va metall panjarali) birikmalarning tarkibi esa o'zgaruvchandir va olinish sharoitlariga bog'liq bo'ladi.**

Masalan, vanadiy (II) oksidning tarkibi temperaturaga va sintezda ishlatiladigan kislороднинг босимига bog'liq bo'ladi. Elementlarning izotop tarkibini ham hisobga olish kerak: masalan, odatdagи suvda 11,19%, og'ir suvda esa — 20% vodorod bo'ladi.

KOH ning 0,8 M 400 ml eritmasiga 1,92 g ishqor qo'shilganda pH=14 bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Ishqorni toping. ( $\alpha=100\%$ , hajm o'zgarishi hisobga olinmasin)

### **Yechim:**

Ishqorning molyarligi va hajmidan foydalanib, miqdorini topamiz.

$$C_m = 0,8 ; V = 0,4 ; n = ?$$

$$n = C_m \cdot V = 0,8 \cdot 0,4 = 0,32 \text{ mol}$$

pH=14 bo'lsa pOH= 0 demak  $C_m(\text{OH}) = 1\text{M}$  bo'lgan


$$C_m = 1 ; V = 0,4 ; n = 0,4 \cdot 1 = 0,4 \text{ mol} ; 0,4 - 0,32 = 0,08 \text{ mol} ; m = 1,92 \text{ g} ; n =$$

$$0,08 \text{ mol} \quad M = \frac{m}{n} = \frac{1,92}{0,08} = 24 \quad \text{Ishqorning massasidan OH ning massasi ayirib tashlansa, } 24 - 17 = 7 \text{ Li}$$

+1 oksidlanish darajasiga ega bo'lgan metal sulfiti va oksidi aralashmasida massa ulushi 32% oltingugurt va 51,2% kislorod bo'lsa, metallni toping.

### **Yechim:**

Aralashmada 51,2% kislorod bor, undan metal sulfitidagi kislorodni massasini ayirsak  $51,2 \cdot 48 / 32 = 3,2 \text{ g}$  metall oksididagi kislorodning massasi chiqadi.



$$32 + 51,2 = 83,2 ; 100 - 83,2 = 16,8 / 2,4 = 7 \text{ Li}$$

### ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

1. Teng massa nisbatda olingan metan va silan aralashmasining mol nisbatini aniqlang.

**j:2:1**

2.Teng mol nisbatda olingan neon va allen aralashmasining massa nisbatini aniqlang.

**j: 1:2**

3. IV valentli qaysi element oksidining molyar massasi 87 g/mol ga teng?

**j: Mn**

4.Ma'lum bir temperaturada to'yigan eritma 5 molyalli bo'lsa, eritmada erigan noma'lum moddani aniqlang. Noma'lum moddaning shu temperaturadagi eruvchanlik koeffitsienti 20 ga teng.

**j: NaOH**

5. Ma'lum bir temperaturada to'yigan eritma 8 molyalli bo'lsa, eritmada erigan noma'lum moddani aniqlang. Noma'lum moddaning shu temperaturadagi eruvchanlik koeffitsienti 32 ga teng.

**j: NaOH**

6. Titri 80 mg/ml bo'lgan temir (III) sulfat eritmasidagi sulfat ionlarining molyar konsentratsiyasini (mol/l) aniqlang. ( $\alpha = 100\%$ )

**j: 0,6**

7. 90 g glukoza eritmasi tarkibida  $13,8 \cdot N_A$  ta atom bo'lsa, eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang. ( $M_{glukoza} = 180 \text{ g/mol}$ )

**j: 40**

8. 90 g temir (II) nitrat eritmasi tarkibida  $12,9 \cdot N_A$  ta atom bo'lsa, eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang. ( $M_{temir (II) nitrat} = 180 \text{ g/mol}$ ) ( tuzning gidrolizlanishi hisobga olinmasin)

**j: 20**

9.Kalsiy fosfidning gidrolizidan necha gramm ishqor va 13,44 litr (n.sh) gaz hosil bo'ladi?

**j: 66,6**

10. Kalsiy fosfidning gidrolizidan necha gramm ishqor va 8,96 litr (n.sh) gaz hosil bo'ladi?

**j: 44,4**

### **Modda miqdori asosida hisoblashlar**

Kimyoning fundamental qonunlari kashf qilinganidan so'ng, kimyoviy elementlar va ularning birikmalarining miqdorini ifodalash uchun masalan, "gramm atom" va "gramm molekula" birliklari qo'llanilgan. Ushbu birliliklarda, qiymatlari amalda juda nisbiy bo'lgan "Atom massasi" va "molekulyar massa" bilan to'g'ridan-to'g'ri

bog'liqlik mavjud edi."Atom massasi" dastavval, bosh kelishuvga ko'ra, kislorodning atom massasi - 16 ga nisbatan olingan edi. Biroq, fiziklar spektrometrda kislorod izotoplarini ajratib olishganida, ular 16 qiyamatini, izotoplardan bittasi uchun, kimyogarlar esa, aynan shu qiyamatni (biroz o'zgaruvchanini) kislorodning 16, 17, 18 izotoplarining o'zaro aralashmasi uchun qabul qilishdi. va nihoyat 1959/60 yillar davomida, Xalqaro Amaliy va Nazariy Fizika ittifoqi (IUPAP) va Xalqaro Amaliy va Nazariy Kimyo ittifoqi (IUPAC) bilan o'zaro hamkorlikda bunday ikkiyoqlamalikka barham berdi. o'sha vaqtidan buyon fiziklar va kimyogarlar, moddaning atom massasini, to'g'riroq aytganda nisbiy atom massasi  $A_r(^{12}\text{C})$ , massa soni 12 bo'lgan uglerod 12 izotopi (uglerod 12,  $^{12}\text{C}$ ) asosida belgilashga kelishib oldilar. Kimyogarlar tomonidan, kimyoviy elementlar yoki birikmalarining miqdorini aniqlash uchun qo'llaniladigan miqdor nomini endilikda "Modda miqdori" deb ataladi. Qaralayotgan muayyan modda uchun modda miqdori, boshqa barcha moddalar uchun ham umumiy (universial) bo'lgan, doimiy o'zgarmas miqdoriy qiymatga (konstantaga) ega moddaning miqdoriga proporsional nisbatda aniqlanadi. Modda miqdori birligi **mol**, ramziy belgisi (ham) **mol**. Mol - uglerod 12 ning massasiga ko'ra, bir mol uglerod 12 ning o'zida qancha atom tutishiga qarab aniqlangan. Xalqaro kelishuvga ko'ra, bir mol uglerod 12 izotopi, 0.012 kg, ya'ni, 12 gramm uglerod miqdori bilan belgilangan.

**Mol - massasi 0.012 kg bo'lgan  $^{12}\text{C}$  uglerodda qancha atom bo'lsa, tarkibida shuncha struktur elementlar tutgan sistemaning modda miqdoridir.**

0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning miqdorini (mol) hisoblang.

**Yechim**

$$0.5\text{mol} \left\{ \begin{array}{c} \frac{Lix}{Cd} = \frac{x}{0.5} \\ \frac{y}{b} = \frac{x}{a} \end{array} \right. \frac{\frac{112y}{7x+112y} \cdot \frac{x}{0.5}}{\frac{112(0.5-x)}{7x+112(0.5-x)}} \text{ kvadrat tenglamadan}$$

$$28 = 112x - 105x^2 \Rightarrow x = \frac{112 - \sqrt{112^2 - 4 \cdot 28 \cdot 4}}{2 \cdot 105} = 0.4 \text{ mol}$$

MeSO<sub>4</sub> ning 160 g 10%li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g MeSO<sub>4</sub> · 7 H<sub>2</sub>O cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmada tuzning miqdorini (mol) hisoblang.

**Yechim:**  $\text{MeSO}_4$  to'yingan eritmasida  $160 \cdot 0.1 = 16\text{g}$  tuz bo'lган.

$$16 \text{ (tuz)} + 6.9 \text{ (tuz)} = 22.9\text{g tuz}$$

$160 + 6.9 = 166.9$  hosil bo'lган tuz eritmasi


$$1) 166.9 - 13.9 = 153 \quad 3) 22.9 - 15.3 = 7.6 \downarrow \text{tuz}$$

$$2) 153 \cdot 0.1 = 15.3 \text{ g tuz} \quad 4) 13.9 - 7.6 = 6.3 \text{ suv}$$

$$0.1 = \frac{x}{160+6.9-13.9}$$

$$X = 15.3 \text{ qolgan tuz}$$

$$15.3/152 = 0.1 \text{ mol}$$



24,1 g noma'lum metall qo'sh oksidi  $\text{H}_2$  yordamida qaytarilganda 7,2 g suv hosil bo'ldi. Metallni toping.

- A) j: Co      B) Cr      C) Fe      D) Pb

**Yechim:**  $\text{Me}_3\text{O}_4 \quad V= 8 : 3 = 2.666$

$$\frac{mA}{mB} = \frac{EA}{EB} \frac{24.1}{7.2} = \frac{x=30.125}{9} \quad 30.125 - 8 = 22.125$$

$$E = 22.125$$

$$V = 2.666 \quad A = E \cdot V = 22.125 \cdot 2.666 = 59 \text{ Co}$$

### ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

1. 0,5 mol qo'rg'oshin (II) gidroksid ozon ishtirokida oksidlanganda hosil bo'lган gazning massasiga teng massada kislorod olish uchun necha gramm nikel (II) nitrat parchalanishi kerak?

j: 183

2. 0,4 mol  $\text{MnO}_4^-$  ioni necha dona ( $N_A$ ) elektronni biriktirib  $\text{Mn}^{2+}$  ioniga aylanadi?

j:  $2 \cdot N_A$

**3.4** mol suv to'liq parchalanishi uchun 4 A tok bilan necha sekund davomida elektroliz qilinishi kerak?

**j:** 193000

**4.** 2 mol litiy galogenidi saqlagan suvli eritma 6 F tok bilan elektroliz qilinganda anodda 103 g moddalar ajraldi. Galogenni aniqlang.

**j:** xlor

**5.** 0,4 mol  $\text{Fe(OH)}_3$  va 1,2 mol  $\text{H}_2\text{SO}_4$  o'rtaqidagi reaksiya maxsulot(lar)i qaysi sinfga mansub?

**j:** nordon tuz

**6.** 0,5 mol metoksietanga yuqori harorat ostida mo'l miqdorda konsentrangan HJ ta'sir ettrildi. Reaksiya 80% unum bilan borgan bo'lsa, hosil bo'lgan metil yodid massasini (g) hisoblang.

**j:** 56,8

**7.** 0,75 mol metoksietanga yuqori harorat ostida mo'l miqdorda konsentrangan HJ ta'sir ettrildi. Reaksiya 80% unum bilan borgan bo'lsa, hosil bo'lgan metil yodid massasini (g) hisoblang.

**j:** 85,2

**8.** Etan kislota etil efirining 1 mol miqdoriga ammiak ta'sir ettirilganda 36,8 g spirt olingan bo'lsa, reaksiya unumini (%) aniqlang.

**j:** 80

**9.** Etilenxorgidrin olish uchun dastlabki spirtdan 3 mol olingan bo'lsa, hosil bo'lgan etilenxorgidrid massasini (g) aniqlang.

( $\eta = 100\%$ )

**j:** 241,5

**10.** 0,5 mol akrolein olish uchun sarflangan glitserindan necha gramm trinitroglitserin olish mumkin?




( $\eta = 100\%$ ,  $M_{\text{trinitroglycerin}} = 227 \text{ g/mol}$ )

**j:** 113,5



### **Kimyoviy reaksiya tenglamalar asosida hisoblashlar**

Kimyoviy reaksiyalar reaksiyaga kirishayotgan dastlabki moddalar (reagentlar) va reaksiya mahsulotlari sonining o‘zgarishi asosida hamda energiya yutilishi yoki chiqishiga qarab sinflanadi



1. Birikish reaksiyalarida ikki yoki undan ortiq moddadan bitta yangi modda olinadi:





2. Parchalanish reaksiyalarida bir moddadan bir necha yangi modda hosil bo‘ladi:



3. O‘rin olish reaksiyalarida oddiy modda murakkab moddaning tarkibiy qismini o‘rmini oladi, natijada yangi oddiy va murakkab moddalar hosil bo‘ladi:



4. Almashinish reaksiyalarida murakkab moddalarning tarkibiy qismlari o‘zaro o‘rin almashadi:



Reaksiya davomida issiqlik (energiya) chiqishi yoki yutilishiga qarab ekzotermik va endotermik reaksiyalarga farqlanadi.

Issiqlik (energiya) chiqishi bilan boradigan reaksiyalar ekzotermik (ekzo-tashqari) reaksiyalar deb ataladi.


Bu reaksiyalarda issiqlik effekti “+” (plyus) ishora bilan ko‘rsatiladi.





Issiqlik (energiya) yutilishi bilan boradigan reaksiyalar endotermik (endo-ichkari) reaksiyalar deb ataladi.

Bu reaksiyalarda issiqlik effekti “-” (minus) ishora bilan ko'rsatiladi.






55% li 109 g oleum 9 g suv bilan aralashtirilsa necha foizli oleum hosil bo'ladi?

**Yechim:**

$SO_3$	$\frac{40=x}{80 \text{ g}}$	$H_2O$	$\frac{9}{18 \text{ g}}$	$H_2SO_4$	
			$\frac{109 \text{ g}}{60 \text{ g}(SO_3)=x} = \frac{100\%}{55\%}$		
			$60 - 40 = 20$		
			$C\% = \frac{20}{109+9} \cdot 100 = 16,95\%$		

Kaliy permanganat va natriy nitratdan iborat 0,8 mol aralashma (mol nisbati 1:0,6) qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nay 320 g 98% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlangan?

**Yechim:**



$$0,8 + 1,2 = 2 \quad 0,8/2 \cdot 100 = \underline{40\%}$$

1.2 gr oleumning tuz xosil qilishi uchun 50 ml 0.5n o'yuvchi kaliy eritmasi talab qilindi. Oleumdagি SO<sub>3</sub> ning umumiyl va xususiy massa ulushini aniqlang.

## Yechim:

Dastlab normal konsentratsiya formulasidan KOH ning massasini aniqlab olamiz

$$Cn = \frac{m * 1000}{E * V} \quad m = \frac{Cn * E * V}{1000} \quad ; \quad m = \frac{0.5 * 56 * 50}{1000} = 1.4 \text{ gr KOH}$$

KOH dan foydalanib oleumning formulasini topib olamiz

$$1.2 \text{ gr} \quad \dots \quad 1.4 \text{ gr}$$



$$98 + 80x \quad \dots \quad 112+112x$$

$$134.4 + 134.4x = 137.2 + 112x$$

$$134.4x - 112x = 137.2 - 134.4$$

$$22.4x = 2.8$$

$$x = 0.125$$

ya'ni  $\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0.125 \text{ SO}_3$  formulani 4 ga ko'paytirsak  
 $4\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0.5 \text{ SO}_3$

$$\text{Mr} (4\text{H}_2\text{SO}_4 \cdot 0.5\text{SO}_3) = 432 \text{ gr}$$

4 mol  $\text{H}_2\text{SO}_4$  tarkibida 4 mol  $\text{SO}_3$  bo'ladi + 0.5  $\text{SO}_3$

Demak jami 4.5  $\text{SO}_3$  bor uning massasi  $4.5 \cdot 80 = 360 \text{ gr}$   $\omega = \frac{360}{432} \cdot 100 \% = 83.3 \%$   
% ( $\text{SO}_3$ ) umumiy

$$0.5\text{SO}_3 = 40 \text{ gr} \quad \omega = \frac{40}{432} \cdot 100 \% = 9.2 \%$$

% ( $\text{SO}_3$ ) xususiy

4 mol  $\text{H}_2\text{SO}_4$  tarkibida 4 mol  $\text{SO}_3$  bo'ladi + 0.5  $\text{SO}_3$

Demak jami  $4.5 \text{ SO}_3$  bor uning massasi  $4.5 \cdot 80 = 360 \text{ gr}$   $\omega = \frac{360}{432} \cdot 100 \% = 83.3\%$   
% ( $\text{SO}_3$ ) umumiy

$$0.5\text{SO}_3 = 40 \text{ gr} \quad \omega = \frac{40}{432} \cdot 100 \% = 9.2 \% \text{ } (\text{SO}_3)$$

xususiy


## ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

**1.** Quyidagi o'zgarishlarda hosil bo'ladigan  $X_2$  moddani aniqlang.



j: tiofen

**2.** Quyidagi reaksiya asosida 0,2 mol  $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_3\text{COONa}$  dan necha gramm  $\text{X}_1$  modda hosil bo'ladi?



j: 11,6

**3.** Ikki xil to'yingan bir atomli spirtlar aralashmasi molekulalararo degidratlanganda 24 g oddiy efir va 7,2 g suv hosil bo'ldi. Spirlarni aniqlang,

j: metanol va etanol

**4.** Eritmadagi kalsiy ionlarini fosfat tarzida to'liq cho'ktirish uchun natriy fosfat tuzi kalsiy xloriddan 1 g kam sarflangan bo'lsa, hosil bo'lgan natriy xlorid miqdorini (mol) aniqlang.

j: 1,2

**5.** Eritmadagi kalsiy ionlarini fosfat tarzida to'liq cho'ktirish uchun natriy fosfat tuzi kalsiy xloriddan 2 g kam sarflangan bo'lsa, sarflangan natriy fosfat miqdorini (mol) aniqlang.

j: 0,8

**6.** 400 g 42,5 % li kumush nitrat eritmasi massalari 18 g dan bo'lgan ko'mir elektrodlar ishtirokida to'liq elektroliz qilindi. Katod ajratib olinib konsentrangan sulfat kislota eritmasida to'liq ertilganda necha mol gaz (lar) ajraladi?

j: 5

**7.** Temir (III) gidroksosulfat hosil bo'lishi uchun, tegishli asos va kislota o'zaro reaksiyaga kirishgan. Shu reaksiyadagi umumiy koeffitsiyentlar yig'indisini toping.

**j: 5**

**8.** Quyidagi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasidagi jami koeffitsiyentlar yig'indisini aniqlang.



**j: 9**

**9.**  $70^{\circ}\text{C}$  dagi tezligi  $1,2 \text{ mol/(l} \cdot \text{min)}$  bo'lgan reaksiya  $40^{\circ}\text{C}$  da  $2/3$  minutdan keyin  $0,6 \text{ mol/l}$  modda konsentratsiyasi  $1,2$  marta kamaysa, reaksiyaning temperature koeffitsientini ( $\gamma$ ) aniqlang.

**j: 2**

**10.** Quyidagi oksidlanish- qaytarilish reaksiyasida kaliy nitrat oldidagi koeffitsiyentni aniqlang.



**j: 3**

### **Eritmadagi erigan modda massasi va massa ulushini hisoblash**

Ikki va undan ortiq komponentlardan va ularning o'zaro ta'sir mahsulotlaridan tashkil topgan gomogen sistemaga eritma deyiladi. Eritmalar tirik organizmlar hayotida muhim ahamiyatga ega. Masalan qon, limfa, va so'lak suyuqliklari eritmalaridir. Eritmalar kimyoviy birikmalar va oddiy mexanik aralashmalar o'rtaida oraliq holatni egallaydilar.

Eritmalar kimyoviy birikmalarga o'xshash bir jinsli ya'ni gomogen bo'ladi.

Erish jarayoni kimyoviy reaksiyaga o'xshash issiqlik yutilishi yoki chiqishi bilan ro'y beradi. Eritmalar kimyoviy birikmalardan farq qilib tarkibi o'zgaruvchan bo'lib, ham erituvchi ham erigan modda xossalari namoyon qiladi. Erikan moddani erituvchidan fizikaviy usulda ajratib olish mumkin. Bu xossalari bilan eritma mexanik aralashmaga o'xshaydi.

Eritmaning yoki erituvchining hajm yoki massa birligida erigan modda miqdoriga kontsentrasiya deyiladi.

Eritmada erigan modda miqdori ko'p bo'lsa, bunday eritma kontsentrlangan, oz bo'lsa, suyultirilgan eritma deyiladi. Kontsentrasiyani ifodalashning bir necha usullari mavjud.

Erigan modda massasining eritmaning umumiy massasiga nisbati erigan moddaning massa ulushi deyiladi.

$$C = \frac{m_1}{m_2} \quad C \% = \frac{m_1}{m_2} \cdot 100\%$$

$$m_2 = m_1 + m_0$$

$C$  - erigan modda massa ulushi  $m_1$  - erigan modda massasi, g

$m_2$  - eritmaning massasi, g  $m_0$  - erituvchining massasi, g.

Erigan moddaning molyar ulushi deb, erigan modda miqdorining eritmadiagi barcha moddalar miqdorlari yig'indisiga nisbatiga aytiladi.

$$N_1 = \frac{n_1}{n_1 + n_0} \quad N_0 = \frac{n_0}{n_1 + n_0}$$

$N_1$  - erigan modda molyar ulushi,  $N_0$  - erituvchining molyar ulushi,

$n_1$  - erigan modda miqdori, mol,  $n_0$  - erituvchi miqdori, mol.

Dorixonalarda massa ulushlari ma'lum bo'lgan ikkita eritmadan ma'lum miqdor uchinchi massa ulushli eritmani tayyorlash uchun aralashtirish qoidasi ishlatiladi. Bu qoidaga binoan birinchi ustunga mavjud ikkita eritmaning massa ulushlari yoziladi. Tayyorlashimiz lozim bo'lgan uchinchi eritmaning massa ulushi mavjud eritmalar massa ulushlari qiymatlari orasida bo'lishi shart, ya'ni  $w_1 > w_2 > w_3$ . 2-ustunga tayyorlanishi kerak bolgan eritmaning massa ulushi ( $w_2$ ) yoziladi. 3-ustunga esa, diagonal bo'yicha massa ulushlari orasigi farq yoziladi. Ho'sil bo'lgan sonlar 1- va 2- eritmalarini qanday nisbatda aralashtirganda 3- eritma hosil bo'lishini ko'rsatadi.

**W 1**

**W 3 - W 2**

**W 2**

**W 3**

**W 1 - W 2**

Misol: 360g 5%-li natriy xlorid eritmasini tayyorlash uchun 20%li va 2%li eritmalardan necha grammdan olish kerak?

$$\text{Echish: } 20 \quad 5-2=3 \quad 3x (20\%) \quad 18x = 360 \text{g.}$$

5


$$2 \quad 20-5=15 \quad 15x (2\%) \quad x = 20 \text{g.}$$

$$20\% \text{ li eritma massasi: } 3x = 3 \cdot 5 \cdot 20 = 60 \text{g}$$

$$2\% \text{ li eritma massasi: } 15x = 15 \cdot 5 \cdot 20 = 300 \text{g}$$

Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.

### **Yechim:**



$$C_m = 2,5 \text{ Molyal}; \quad n = 2 \quad C_{molyal} = \frac{n}{kg} \quad kg = \frac{n}{C} = \frac{2}{2,5} = 0,8 \text{ kg} = 800 \text{g eritmada}$$


$$800 - 180 = 620 \text{ gr suv bor}$$

$$620 + 208 \text{ gr} = 828 \text{ gr dastlabki eritma}$$

Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi  $\text{HCl}$  tugaguncha eritilganda  $\text{H}_2$  gazi ajraldi va  $\text{MeCl}_2$  ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan  $\text{MeCl}_2$  eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)

### **Yechim:**

$$X=0.2x \quad 0.4 \cdot 71=14.2 \quad x=0.4$$



$$1) C_m = \frac{n}{1 \text{ kg}} \quad n = 10 \cdot 1 = 10 \text{ mol} \quad 2) 10 \cdot 36.5 = 365 + 1000 = 1365 \text{ eritma}$$

$$3) 1365 \xrightarrow{54.6} 365 \text{ HCl} \quad 4) n = \frac{14.6}{36.5} = 0.4 \text{ mol HCl}$$

$$5) 0.322 \xrightarrow{\frac{0.2x+14.2}{0.2x+54.6-0.4}} x = 24 \text{ Mg}$$

$$6) 4.8=x \quad \text{Mg} \underset{24}{+} 2\text{HCl} = \text{MgCl}_2 \underset{1}{+} \text{H}_2 \underset{2}{\quad} 7) 54.6 + 4.8 = 59.4 - 0.4 = 59 \text{ gr eritma}$$

Metall sulfat tuzi o‘z massasiga teng massali suvda eritilganda eritmadaǵi metal kationlarining massa ulushi 13/58 ga teng bo‘ldi. Tuzni aniqlang.  
( $\alpha=1$ , gidroliz jarayoni hisobga olinmasin)

### Yechim:

$$1 \text{ usul} \quad E = 96 : 2 = 48$$

$$\text{MeSO}_4 \quad x \\ x + 48 + x + 48 = 2x + 96 \quad \frac{x}{2x+96} = \frac{13}{58} x = 39 \text{ K}$$

2 usul

Hisoblash oson bo’lishi uchun hosil bo’lgan eritmaning massasini 58 deb olamiz, hosil bo’lgan eritmaning massasini 58 bo’lishi uchun, dastlabki tuz va suv 29 grammdan bo’lishi kerak. 29g tuzda 13 g metall bo’lsa, 16 g sulfat ionni bo’ladi. Ekvivalentga ko’ra Me ni topamiz.

$$13 \text{ g Me} \xrightarrow{X} 16 \text{ g SO}_4^- \\ X \xrightarrow{48 \text{ g SO}_4^-} X = 39 \text{ K}$$

$\text{CaCO}_3$  va  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  dan iborat aralashma doimiy massaga qadar qizdirilganda keyin qoldiq massasi dastlabki aralashma massasining 60% ini tashkil qildi. Boshlang’ich aralashmadagi moddalarning massa ulushini (%) aniqlang.

### Yechim:

$$100 \text{ g} \left\{ \begin{array}{l} \text{CaCO}_3 \rightarrow \text{CaO} + \text{CO}_2 \\ \text{Ca}(\text{OH})_2 \rightarrow \text{CaO} + \text{H}_2\text{O} \end{array} \right\} \left\{ \begin{array}{l} 100x + 74y = 100 \\ 56x + 56y = 60 [\cdot 1.321] \end{array} \right. \\ 26x = 20.7 \\ X = 0.7967 \cdot 100 = 79.67$$

$$100 - 79.67 = 20.3$$

## ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

**1.** Массаси 114,8 г  $\text{ZnSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  кристаллогидратни 85,2 г сувда эритишдан ҳосил бўлган эритмадаги рух сульфатнинг масса улушкини ҳисобланг.

**j:** 0,322

**2.** Олмаларни қишида сақлаш учун, улар кальций хлориднинг 0,3%ли эритмасига бир неча секунд ботириб олинади ва сунгра омборга терилади. Шу эритманинг моляр концентрациясини аникланг?  $\text{Ar}(\text{Ca})=40$ ,  $\text{Ar}(\text{Cl})=35,5$

**j:** 0,027

**3.** 93 г натрий оксид неча мл сувда эритилганда, 20% ли ўювчи натрий эритмаси ҳосил бўлади ? [  $\text{Ar}(\text{Na})=23$  ]

**j:** 507

**4.** 8,96 литр водород сульфид ёндирилганда ҳосил бўлган сульфит ангидридни 25% натрий гидроксиднинг 50 мл эритмасига (зичлиги 1,28 г/мл) юттирилганда, қандай тузнинг неча фоизли эритмаси ҳосил бўлади ? [  $\text{Mr}(\text{SO}_2)=64$ ,  $r(\text{NaOH})=40$ ,  $\text{Mr}(\text{H}_2\text{S})=34$  ]

1)  $\text{Na}_2\text{SO}_3$     2) 41,6    3)  $\text{NaHSO}_4$     4) 46,4    5)  $\text{NaHSO}_3$

**j:** 4 ва 5

**5.** Таркибида 3 моль  $\text{HCl}$  бўлган эритмани нейтраллаш учун қандай ҳажмдаги (мл) зичлиги 1,2 г/мл бўлган натрий гидроксиднинг 20% ли эритмасидан керак бўлади ?

**j:** 500

**6.** Масса улуси 3% бўлган  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  нинг 50 г эритмасини тайёрлаш учун неча грамм кристаллик сода олиш керак ?

**j:** 4,05

**7.** Нитрат кислотанинг 10 мл 10% ли эритмаси ( $p=1,056$  г/мл) билан 100 мл 30% ли эритмаси ( $p=1,184$  г/мл) ўзаро аралаштирилишидан ҳосил бўлган янги эритмада кислотанинг фоиз концентрацияси қанча бўлади ?

**j:** 28,36

**8.** 8 г  $\text{CuO}$  билан 4,9% ли 195 мл сульфат кислота эритмаси ( $p=1,03$  г/мл) ўзаро таъсир эттирилди. Эритма фильтрланди ва сув ҳамомида буғлатилди. Бунда қанча (г) модда ҳосил бўлади ?

**j:** 16

**9.** 4 г калий гидрид 100 мл сувда эритилди. ҳосил бўлган ишқорнинг фоиз концентрациясини аниқланг.

**j:** 5,39

**10.** 500 г 6%-ли эритма тайёрлаш учун неча грамм туз ва сув олиш керак?

**j:** 30 ва 470

**11.** 100 г 5%-ли ва 250 г 10%-ли эритмалар аралаштирилганда ҳосил булган эритмадаги тузнинг масса улушкини (%) аникланг.

**j:** 8,6

**12.** 300 г 12%-ли ва 200 г 3%-ли эритмалар аралаштирилганда ҳосил булган эритмадаги тузнинг масса улушкини (%) аникланг.

**j:** 8,4

**13.** 300 г эритмани буғлатиб, 45 г курук туз олинган. Бошлангич эритмадаги тузнинг масса улушкини (%) хисобланг.

**j:** 15

**14.** Табобатда кальций хлориднинг 5%-ли эритмаси кулланилади. Шундай эритмадан 150 г тайёрлаш учун неча грамм кальций хлорид талаб этилади?

**j:** 7,5

**15.** Гипертония касаллигини даволашда магний сульфатнинг 25%-ли эритмаси кулланади. Шундай эритманинг 10 г миқдорини тайёрлаш учун неча грамм туз талаб этилади?

[ Ar(Mg)=24, Ar(Cl)=35,5 ]

**j:** 2,5

**16.** 100 г 3,42%ли алюминий сульфат эритмаси билан 100 г 3,18% ли натрий карбонат эритмасининг узаро аралаштирилишидан ҳосил булган эритмадаги натрий сульфат тузининг фоиз концентрацияси кандай булади? [ Ar(Al)=27, Ar(S)=32, Ar(Na)=23, Ar(C)=12 ]

**j:** 2,16

**17.** Таркибида 80% кальций карбонат тутган 12,5 г мармарни эритиш учун масса улуши 10% бўлган HCl эритмасидан неча грамм керак ?

**j:** 73

**18.** 20%-ли KOH эритмасини ҳосил қилиш учун, таркибида 44 г KOH тутган 453 г эритмада қанча массали (г) калий оксидни эритиш керак ?

**j:** 47

**19.** Миқдори 0,5 моль бўлган  $ZnSO_4 \cdot 7H_2O$  кристаллогидратини 178,5 мл сувда эритилганда ҳосил бўлган эритмадаги рух сульфатнинг масса улушкини ҳисоблаб топинг.

**j:** 25,0

**20.** Macca улуши 0,12 бўлган эритма тайёрлаш учун 450 мл сувда неча литр (н.ш.) аммиак эритиш керак ? [ Mr(N)=14 ]

**j:** 81

**21.** 50 % li sulfat kislota eritmasi tok o'tkazmasligini ta'minlash uchun 5 A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Dastlabki eritmaning massasini (g) aniqlang.

**j:** 90

**22.** 10 % li sulfat kislota eritmasi tok o'tkazmasligini ta'minlash uchun 5 A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Dastlabki eritma tarkibidagi kislotaning massasini (g) aniqlang.

**j:** 5

**23.**  $\text{AgNO}_3$  eritmasi inert elektrodlar yordamida elektroliz qilinganda eritma massasi 50 g ga kamaydi, eritmadiagi atomlar soni esa  $1,2 \cdot N_A$  taga kamaydi. Eritmadan necha faradey tok o'tganini aniqlang.

(  $N_A$ -Avagadro soni )

**j:** 0,4

**24.** X g 40 % li  $\text{CuSO}_4$  eritmasi orqali 4 F tok o'tkazilganda katodda 33,6 litr (n.sh) gaz ajraldi. X ning qiymatini aniqlang. ( elektrod inert )

**j:** 200

**25.** X g 30 % li  $\text{CuSO}_4$  eritmasi orqali 3,2 F tok o'tkazilganda katodda 22,4 litr (n.sh) gaz ajraldi. X ning qiymatini aniqlang.

( elektrod inert )

**j:** 320

**26.** 100 g 34% li kumush nitrat eritmasiga 46 g natriy bo'lakchasi tashlandi. Oxirgi eritma massasini (g) aniqlang.

**j:** 120,8

**27.** 200 g 17% li kumush nitrat eritmasiga 78 g kaliy bo'lakchasi tashlandi. Oxirgi eritma massasini (g) aniqlang.

**j:** 252,8

**28.** Noma'lum kislota eritmasida kislotaning massa ulushi  $7/25$  ga teng. Agar eritma tarkibidagi suvning miqdori (mol) kislotaning miqdoridan (mol) 14 marta ko'p bo'lsa, kislotani aniqlang.

**j:**  $\text{H}_2\text{SO}_4$

**29.** Noma'lum ishqor eritmasida ishqorning massa ulushi 7/25 ga teng. Agar eritma tarkibidagi suvning miqdori (mol) ishqorning miqdoridan (mol) 8 marta ko'p bo'lsa, ishqorni aniqlang.

**j:** KOH

**30.** 150 г 5% ли калий ишкор эритмасини тайёрлаш учун нечта грамм KOH ва сув керак?

**j:** 142,5 г H<sub>2</sub>O; 7,5 г KOH;

### Molyar konsentratsiya asosida hisoblashlar

Molyar konsentratsiya – 1 litr eritmada erigan moddalarning mollar soni bilan belgilanadi yoki molyar konsentratsiya bu – erigan modda miqdorining eritma hajmiga bo'lgan nisbati bo'lib, u quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$C_M = n(\text{mol}) / V(\text{litr}) \quad (1)$$

bu yerda: C – moddaning molyar konsentratsiyasi; V – eritmaning hajmi, n – hajmga ega bo'lgan eritmada erigan moddaning miqdori, ya'ni "mollar" soni. Agar n= m / M va hajmni millilitrda ifodalasak, u holda:

$$C_M = m \cdot 1000 / M \cdot V \text{ bo'ladi.} \quad (2)$$

Bu yerda: m modda – erigan modda massasi, g; M – erigan moddaning molyar massasi, g/mol. Eritmaning molyar konsentratsiyasi yoki molyarlik deb, 1 litr eritmadagi erigan moddaning mollar soniga aytildi. 1 litr eritmada 1 mol modda erigan bo'lsa, 1 molar, 0,5 mol modda erigan bo'lsa, 0,5 molar ertima hisoblanadi. Molyar konsentratsiya birligi – mol/m<sup>3</sup> yoki mol/l bilan ifodalanadi. Molyar konsentratsiyani M harfi bilan belgilanadi. Masalan, 0,2 M yozuvni molyar konsentratsiyasining 0,2 mol/l ga tengligini ifodalaydi.

$$C_M = M \cdot \omega \cdot \rho / 10 \quad (3)$$

Bunda ρ – modda zichligi; ω - eruvchining foiz miqdori; M - erigan moddaning molyar massasi; 1l eritmadagi erigan moddaning mollar sonini molyar kontsentratsiyasi (C<sub>M</sub>) bilan ifodalanadi. 1 litr eritmada 1 mol modda erigan bo'lsa bir

molli yoki molyar eritma deyiladi va 1M deb belgilanadi. Agar 1 litr eritmada 0,1 mol modda erigan bo'lsa, -detsilmolyar eritma deyiladi va 0,1M deb belgilanadi va x.k.

500 g 25,1% li natriy gidrofosfat eritmasiga yetarli miqdorda 500 ml ortofosfat kislota eritmasidan qo'shildi. Bunda olingan eritmadiagi natriy digidrofosfat tuzining massa ulushi natriy gidrofosfat tuzining massa ulushidan 1,5 martta kam bo'ldi. Qo'shilgan fosfat kislota eritmasining molyarligini (M) aniqlang.

**Yechim:**

$$\begin{aligned} Na_2HPO_4 + H_3PO_4 &= 2 NaH_2PO_4 \\ 125.5 - 142x &= 240x \cdot 1.5 \\ 125.5 - 142x &= 360x \quad C_m = \frac{n}{V} = \frac{0.25}{0.5} = 0.5 \\ X &= 0.25 \end{aligned}$$

Tarkibida noma'lum modda saqlangan 240 g eritmaning molyarligi va molyalligi 5 ga teng bo'lsa, noma'lum moddani aniqlang. ( $\rho = 1,2 \text{ g/ml}$  deb hisoblansin)

**Yechim:**

$$\begin{aligned} C_m &= 5 \quad V = \frac{m}{\rho} = \frac{240}{1.2} = 200 \text{ ml} = 0.2 \text{ liter} \\ 200 \text{ ml} \cdot 1.2 \text{ g/ml} &= 240 \text{ g eritma} - 200 \text{ ml suv} = 40 \text{ g NaOH} \end{aligned}$$

200 g 43,1%  $Na_2HPO_4$  eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml  $H_3PO_4$  eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadiagi  $NaH_2PO_4$  tuzining massa ulushi  $Na_2HPO_4$  tuzining massa ulushidan 3 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan  $H_3PO_4$  eritmasining molyarligini aniqlang.

$$\begin{array}{rcl} x \text{ mol} & & 2x \text{ mol} \\ \text{Yechim: } Na_2HPO_4 + H_3PO_4 & = & 2NaH_2PO_4 \\ \hline 200 & 100\% & (0.6 - x) 142 \\ 86.2 = x & 43.1 \% & Na_2HPO_4 \end{array}$$

$$\begin{aligned} (0.6 - x) 142 &= 3 \cdot 240 x \\ 86.2 - 142x &= 720x \\ 86.2 &= 862x \\ X &= 0.1 \text{ mol} \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} N &= \frac{86.2}{142} = 0.6 \text{ mol} \\ C_M &= \frac{n}{V} = \frac{0.1}{0.1} = 1 \text{ M} \end{aligned}$$

## ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

**1.** 1 литрида 11,2 л водород хлорид эриган эритманинг моляр концентрациясини аникланг.

**j:** 0,5

**2.** 34%ли сульфат кислота эритмасининг ( $p=1,25\text{ г/моль}$ ) моляр концентрациясини хисобланг.

**j:** 4,3

**3.** Масса улуши 4% булган мис хлорид эритмасининг 150 г микдоридаги мис(II) ионларни тула чуктириш учун децимоляр (0,1 моляр) ишкор эритмасининг қандай ҳажми (л) талаб этилади?

**j:** 0,9

**4.** 250 мл сувга 0,56 л аммиак юттирилганда хосил булган эритмадаги аммоний гидроксиднинг массасини ва моляр концентрациясини топинг.

**j:** 0,87 г; 0,1М

**5.** 400 мл 2,5 М HCl эритмаси билан таркибида  $3,02 \times 10^{23}$  та  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  молекуласи бўлган эритма ўзаро таъсирлашганда, қанча ҳажм (л,н.ш.) газ ажралиб чиқади ?

**j:** 11,2

**6.** 200 мл NaOH эритмаси билан мўл микдор мис (II) нитрат эритмаси ўзаро аралаштирилганда 19,6 г чўкма тушди. Ишқорнинг концетрацияси (моль/л хисобига) қандай бўлган ?

**j:** 2

**7.** 100 мл 2 М калий гидроксид эритмаси неча грамм алюминий гидроксидни калий гексагидроксо алюминат ҳосил қилиб эритиши мумкин ?

**j:** 5,2

**8.** Натрий гидроксиднинг 400 мл 1,2 М эритмаси билан 600 мл 1,8 М эритмаси ўзаро аралаштирилди. Ҳосил бўлган эритмада ишқорнинг моляр концентрациясини аниқланг.

**j:** 1,56

**9.** 400 мл 0,5 М сульфат кислота билан 10,4% ли 160 мл ( $p=1,25$  г/мл) барий хлорид эритмалари ўзаро аралаштирилди. Бунда қайси модда ва неча грамм ортиб қолади ?

**j:** 9,8 г  $\text{H}_2\text{SO}_4$

**10.** 25 мл 0,5 М ли эритмада неча грамм барий хлорид эриган ? [  $\text{Mr}(\text{BaCl}_2)=208$  ]

**j:** 2,6

**11.** 100 мл бир молярли алюминий сульфат эритмасининг қолдиқсиз реакцияга кириши учун неча миллилитр бир молярли қўрошин нитрат эритмасидан қўшиш керак ?

**j:** 300

**12.** Сульфат кислотанинг 150 мл 2 М ли ва 350 мл 4 М ли эритмалари аралаштирилади. ҳосил бўлган эритманинг моляр концентрациясини аниқланг.

**j:** 3,4

**13.** 50 мл 0,2 М натрий гидроксид эритмасини нейтраллаш учун концентрацияси 0,1 моль/л бўлган сульфат кислота эритмасидан неча миллилитр сарф бўлади ?

**j:** 50

**14.** Мис (II) сульфатнинг 10 мл 10% ли эритмаси ( $p=1,10 \text{ г/см}^3$ ) билан 10 мл 1% ли эритмасини ( $p=1,00 \text{ г/см}^3$ ) аралаштириб тайёрланган мис (II) сульфат эритмасининг моляр концентрациясини аниқланг. [  $\text{Mr}(\text{CuSO}_4)=160$  ]

**j:** 0,375

**15.** Натрий карбонатнинг 1л 0,05 моляр эритмасида неча грамм модда бор? [  $\text{Ar}(\text{Na})=23$ ,  $\text{Ar}(\text{C})=12$  ]

**j:** 5,3

**16.** Натрий гидроксид эритмасининг концентрацияси 40% ли бўлса, унинг моляр концентрацияси қандай ? [  $p = 1,2 \text{ г/см}^3$  ] [  $\text{Ar}(\text{Na})=23$  ]

**j:** 12

**17.** 60% ли фосфат кислота эритмасининг ( $p=1,5 \text{ г/мл}$ ) моляр концентрациясини аниқланг.

**j:** 9,2

**18.** Стандарт шароитда ( $25^\circ\text{C}$ ;  $101,325 \text{ кПа}$ ) 5,6 л водород олиш учун, рух метали билан концентрацияси 2 моль/л бўлган хлорид кислота эритмасидан неча миллилитр сарф бўлган ?

**j:** 229

**19.** Бир ҳажм сувда 450 ҳажм водород хлорид эришидан ҳосил бўлган эритманинг зичлиги  $1,21 \text{ г/мл}$  га teng. Кислотанинг эритмадаги фоиз ва моляр концентрацияларини ҳисобланг.

**j:** 42,3% ва 14 M

**20.** 800 мл 2 моль/л концентрацияли мис(II) хлорид эритмасини тайёрлаш учун неча грамм туз талаб этилади? [  $\text{Ar}(\text{Cu})=64$  ]

**j:** 216

**21.** Концентрацияси 0,3 моль/л булган эритманинг 200 мл микдорида неча грамм натрий карбонат эриган? [ Ar(Na)=23 ]

**j:** 6,36

**22.** Водород хлориднинг неча грамм микдоридан 2 л 0,5 моль/л ли эритма тайёрлаш мумкин?

[ Ar(Cl)=35,5 ]

**j:** 36,5

**23.** Концентрацияси 0,2 моль/л булган 500 мл темир(III) хлорид эритмаси тайёрлаш учун неча грамм туз талаб этилади? [ Ar(Fe)=56, Ar(Cl)=35,5 ]

**j:** 16,25

**24.** 2 литр 2 моляр эритма тайёрлаш учен қанча моль калий гидроксид керак ?

**j:** 4

**25.** ўювчи калийнинг масса улуши 0,2 бўлган эритмаси (зичлиги 1,25 г/мл) дан 140 г микдори билан 120 мл 1,5 моль/л концентрацияли эритмаси аралаштирилганла ҳосил бўлган янги эритмадаги молданинг моляр концентрациясини аниқланг.

**j:** 2,9

**26.** Массаси 87,75 г бўлган ош тузи 750 мл сувда эритилди. Эритманинг моляр концентрациясини ҳисобланг. Эритма тайёрлашда ҳажм ўзгаришини ҳисобга олманг. [ Mr(Na)=23; Mr(Cl)=35,5 ]

**j:** 2,0

**27.** ҳажми 2 л бўлган  $KAl(SO_4)_2$  нинг 0,25 М концентрацияли эритмасидаги жами ионлар сонини ҳисобланг.

**j:**  $12 \cdot 10^{23}$

**28.** 0,02 М ли сульфат кислота тўла диссоциланган эритмадаги водороднинг моль-ион миқдорини ҳисобланг.

**j:** 0,04

**29.** 0,1 л сувда 45 литр водород хлорид гази эритилганда, зичлиги  $1,21 \text{ г/см}^3$  бўлган эритма ҳосил бўлди. 1ҳосил қилинган хлорид кислотанинг фоиз ва моляр концентрациясини аниқланг.

**j:** 42,3; 14

**30.** 20% ли NaOH эритмасининг ( $\rho=1,2 \text{ г/мл}$ ) моляр концентрацияси қанчага тенг бўлади ?

**j:** 6

### Gazlarga oid masalalar

#### **Gaz qonunlari. Avogadro qonuni. Gazning molyar hajmi**

Gazlar tekshirish uchun eng oddiy obyekt bo’lganligi sababli, ularning xossalari va gazsimon moddalar orasidagi reaksiyalar eng to’liq o’rganilgan.

Fransuz olimi J.L.Gey-Lyussak hajmiy nisbatlar qonunini aniqladi:

**reaksiyaga kirishayotgan gazlarning hajmlari bir xil sharoitda (temperatura va bosimda) bir - biriga oddiy butun sonlar nisbatida bo’ladi.**

Masalan, 1 1 xlor 1 1 vodorod bilan birikib, 2 1 vodorod xlorid hosil qiladi; 2 1 oltingugurt (IV) oksid 1 1 kislorod bilan birikib, 2 1 oltingugurt (VI) oksid hosil qiladi.

Bu qonun Italiya olimi A.Avogadroga oddiy gazlarning (vodorod, kislorod, azot, xlor va boshqalar) molekulalari ikkita bir xil atomlardan tarkib topgan, deb taxmin qilishga imkon berdi. Vodorod bilan xlorning birikishida ularning molekulalari

atomlarga ajraladi va bu atomlar vodorod xlorid molekulalarini hosil qiladi. Lekin vodorodning bitta molekulasi bilan xloring bitta molekulasidan ikki molekula vodorod xlorid hosil bo'lgani uchun uning hajmi boshlang'ich gazlar hajmlarining yig'indisiga teng bo'lishi kerak, ya'ni yoki Shunday qilib, agar oddiy gazlarning molekulalari ikki atomli bo'ladi ( $H_2$ ,  $Cl_2$ ,  $O_2$ ,  $N_2$  va boshqalar), degan tasavvurga asoslansak, hajmiy nisbatlarni oson tushuntirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, shu moddalar molekulalarining ikki atomli ekanligining isboti bo'ladi.

Gazlarning xossalari o'rghanish A.Avogadroga gipoteza aytishga imkon berdi, keyinchalik bu gipoteza tajriba ma'lumotlari bilan tasdiqlandi va shu sababli *Avogadro qonuni* deb atala boshlandi:

**bir xil sharoitda (temperatura va bosimda) turli gazlarning teng hajmlarida molekulalar soni bir xil bo'ladi.**

Avogadro qonunidan muhim xulosa kelib chiqadi: bir xil sharoitda istalgan gazning 1 moli bir xil hajmni egallaydi. Agar 1 1 gazning massasi ma'lum bo'lsa, bu hajmni hisoblab topish mumkin. Normal sharoitda, ya'ni 273 K (0°C) temperatura va 101 325 Pa bosimda 1 1 vodorodning massasi 0,09 g ga, uning molyar massasi  $1,008 \cdot 2 = 2,016$  g/mol ga teng. U holda 1 mol vodorod egallagan hajm quyidagiga teng bo'ladi:

Xuddi o'sha sharoitda 1 1 kislороднинг массаси 1,429 g; мольяр массаси 32 g/mol. У holda hajmi quyidagiga teng: Demak,

**normal sharoitda turli gazlarning 1 moli 22,4 1 ga teng hajmni egallaydi. Bu hajm gazning molyar hajmi deyiladi.**

**Gazning molyar hajmi — bu modda hajmining shu moddaning miqdoriga nisbatidir:**

bunda  $V_m$  — gazning molyar hajmi (o'lcham birligi  $m^3/mol$  yoki  $1/mol$ );  $V$  — sistemadagi moddaning hajmi;  $n$  — sistemadagi moddaning miqdori. Yozuvga misol: gazning  $V_m(n.sh.)=22,4$  1/mol.

1860-yilda kimyogarlarning Karlsruedagi Xalqaro syezdida Avogadro ta'limoti umum tomonidan e'tirof etildi. Syezd atom-molekular talmotning rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi. Lekin bu ta'limot D.I.Mendeleyev kimyoviy elementlarning davriy qonunini kashf etgandan keyin, ayniqsa tez rivojlandi.

Avogadro qonuni asosida gazsimon moddalarning molyar massalari aniqlanadi. Gaz molekulalarining massasi qancha katta bo'lsa, bir xil hajmdagi gazning massasi shuncha katta bo'ladi. Gazlarning teng hajmlarida bir xil sharoitda molekulalar soni, binobarin, gazlarning mollar soni bir xil bo'ladi. Gazlarning teng hajmlari massalarining nisbati ularning molyar massalarining nisbatiga teng: bunda:  $m_1$  — birinchi gaz muayyan hajmining massasi,  $m_2$  — ik-kinchi gaz xuddi shunday hajmining massasi,  $M_1$  va  $M_2$  — birinchi va ikkinchi gazning molyar massalari.

**Bir gaz muayyan massasining xuddi shunday hajmdagi ikkinchi gaz (o'sha sharoitlarda olingan) massasiga nisbati birinchi gazning ikkinchi gazga nisbatan zichligi deyiladi va  $D$  harfi bilan belgilanadi:**

$$M_1 : M_2 = D, \text{ bundan } M_1 = M_2 D$$

Odatda, gazning zichligi eng yengil gaz — vodorodga nisbatan aniqlanadi ( $D_{H_2}$  bilan belgilanadi). Vodorodning molyar massasi 2,016 g/molga yoki taqriban 2 g/molga teng. Shu sababli quyidagini olamiz:

$$M = 2D_{H_2}$$

**Moddaning gaz holatidagi molyar massasi uning vodorod bo'yicha zichligining ikkiga ko'paytirilganiga teng.**

Ko'pincha,gazning zichligi havoga nisbatan aniqlanadi.Havo gazlar aralashmasi bo'lsa ham har holda uning o'rtacha molekular massasi bor,deyiladi. Bumassa 29g/molga teng.Bu holda molyar massa ushbu ifodadan aniqlanadi:

$$M=2D_h$$

Molekular massalarni aniqlash shuni ko'rsatdiki, oddiy gazlarning molekulalari ikki atomdan ( $H_2$ ,  $F_2$ ,  $Cl_2$ ,  $O_2$ ,  $N_2$ ), nodir gazlarning molekulalari esa bir atomdan tarkib topgan ( $He$ ,  $Ne$ ,  $Ar$ ,  $Kr$ ,  $Xe$ ,  $Rn$ ). Nodir gazlar uchun „molekula” va „atom” tushunchalari teng qimmatlidir. Lekin ayrim boshqa oddiy mod-dalarning molekulalari uch va undan ko'p atomlardan tarkib topgan, masalan, ozon  $O_3$ , fosfor  $R_4$  molekulalari, o'rtacha temperaturada oltingugurt bug'lari  $S_8$ .

Avogadro qonuni asosida turli hisoblashlar o'tkaziladi — gazlarning normal sharoitdagi hajmi, massasi, zichligi, gazsimon moddalarning molyar massasi, shuningdek, gazlarning nisbiy zichligi hisoblab topiladi.

Gazsimon moddalar bilan bog'liq hisoblashlarga doir kimyoviy masalalarni yechish uchun ko'pincha maktab fizika kursida o'r ganiladigan gaz qonunlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Ularni bu yerda bat afsil ko'rib o'tirmay, ta'riflarini va hisoblashlar uchun zaruriy formulalarni keltirish bilan kifoyalanamiz.

**Boyl-Mariott qonuni:** *berilgan miqdordagi gazning o'zgarmas temperaturadagi hajmi shu gazning bosimiga teskari proporsionaldir.*

Bundan

$$pV=const,$$

bu yerda  $p$  — bosim,  $V$  — gazning hajmi.

**Gey-Lyussak qonuni:** *o'zgarmas bosimda gaz hajmining o'zgarishi temperaturaga to'g'ri proporsional, ya'ni*

$$VT=const,$$

bu yerda  $T$  - temperatura, K (Kelvin) hisobida.

**Boyl-Mariott bilan Gey-Lyussakning birlashgan gaz qonuni:**

$$pV/T=const$$

Bu formula odatda gazning biror boshqa sharoitdagi hajmi ma'lum bo'lganda uning berilgan sharoitdagi hajmini hisoblab topish uchun ishlataladi. Agar normal sharoitdan boshqa sharoitga (yoki normal sharoitga) o'tiladigan bo'lsa, u holda bu formula quyidagicha yoziladi.

$$P_0 V_0 / T_0 = P V / T \quad \frac{P V}{T} = \frac{P_0 V_0}{T_0},$$


bu yerda:  $P_0$ ,  $V_0$ ,  $T_0$  — gazning bosimi, hajmi va normal sharoitdagi  $P_0 = 101\ 325$  Pa,  $T_0 = 273$  K) temperaturasi.

Agar gazning massasi yoki miqdori ma'lum bo'lib, uning hajmini hisoblab topish zarur bo'lsa, u holda *Mendeleyev-Klapeyron tenglamasidan* foydalilaniladi:

bu yerda:  $n$  - gazning mollar soni,  $m$  — massasi ( $r$ ),  $M$  — gazning molyar massasi (g/mol),  $R$  - universal gaz doimiysi.  $R = 8,31$  J (mol K).

Evdiometrda vodorod, metan va kislorodning 130 ml aralashmasi yondirildi. Suv bug'lari kondensatlangandan so'ng hosil bo'lgan aralashma 35 ml bo'ldi.  $\text{CO}_2$  ishqorga yuttirilganda 25 ml gaz qoldi. Qoldiqda cho'g'langan cho'p yonadigan bo'lsa, dastlabki aralashmaning tarkibini (ml) hisoblang.  
(J: 50; 10; 70)

### **Yechim:**



$$130 - 35 - 25 = 10 \text{ ml CO}_2$$

$$130 - 20 - 10 - 25 = 75 \text{ ml H}_2 \text{ va O}_2 \text{ (a) reaksiyada}$$

$$\text{a)} 3 \text{ ml} \rightarrow 2 \text{ ml H}_2$$

$$75 \text{ ml} \rightarrow x / x = 50 \text{ ml H}_2$$

$$75 - 50 = 25 \text{ ml O}_2 \quad V(\text{O}_2) = 20 + 25 + 25 = 70 \text{ ml}$$

$$130 - 70 - 50 = 10 \text{ ml CH}_4$$

$$\text{J: H}_2 = 50 \text{ ml; CH}_4 = 10 \text{ ml; O}_2 = 70 \text{ ml.}$$

Vodorod olish uchun ishlatiladigan asbobda CO va H<sub>2</sub>O bug'i 1:5 nisbatda yuborildi. CO ning necha foizi CO<sub>2</sub> ga aylanganligini hamda kontakt aparatidan chi qayotgan gazlar aralashmasidagi H<sub>2</sub>O bug'ini hajmiy ulushini % da toping. So'ngi aralashmadagi CO ning  $\varphi = 5\%$

**Yechim:**



$$0,05 = \frac{1-x}{(1-x)+(5-x)+2x}; \quad 0,05 = \frac{1-x}{6}; \quad 1-x = 0,05 * 6;$$




$$1-x = 0,3; \quad x = 0,7. \quad 5 - 0,3 = 4,3 \text{ mol H}_2\text{O}$$

$$\varphi(\text{H}_2\text{O}) = \frac{4,3 * 100\%}{6} = 71,67\%;$$

1 - 0,7 CO sarf bo'lgan. 70% CO<sub>2</sub> ga aylangan.

Metan, etan va asetilenden iborat normal sharoitda o'lchangan 42,4 l aralashma yondirilganda 68,8 l uglerod dioksid hosil bo'ladi. Bunda 102 l kislород sarf bo'ladi. Aralashmada gazlarning har biridan necha litrdan bo'lgan?

**Yechim:**



Gazlarning yonishi uchun normal sharoitda 102 l kislород sarf bo'lganligini inobatga olib reaksiya tenglmalari asosida uchinchi algebraik tenglama keltirib chiqariladi:

Uch noma'lumli uchta tenglamadan iborat chiziqli tenglamalar sistemasi tuziladi va yechiladi:

$$1(S) = \begin{cases} x + y + z = 42,4 & (1) \\ x + 2y + 2z = 68,8 & (2) \\ 2x + 3,5y + 2,5z = 102 & (3) \end{cases}$$

1 (S) sistemaning 2- va 3 - tenglamarasidan x o'zgaruvchi yo'qotiladi:

$$2 (S_1) = \begin{cases} x + y + z = 42,4 & (1) \\ y + z = 26,4 & (2) \\ 1,5y + 0,5z = 17,2 & (3) \end{cases}$$

3 ( $S_1$ ) sistemaning 2-tenglamasini 3-tenglamadagi y oldidagi sonning qarama-qarshi ishorasi bilan ko'paytirib, ( $S_1$ ) sistemaning 3- tenglamasiga qo'shib, 3-tenglamadan y o'zgaruvchi yo'qotilgan quyidagi sistema hosil qilinadi:

$$4 (S_2) = \begin{cases} x + y + z = 42,4 \\ y + z = 26,4 \\ -z = -22,4 \end{cases}$$

5 Bunday sistemadan y va x ning qiymatlarini hisoblab topish qiyin emas:

$$6 z = 22,4$$

$$7 y = 26,4 - 22,4 = 4$$

$$8 x = 42,4 - y - z = 42,4 - 4 - 22,4 = 16$$

$$9 \{(16; 4; 22,4)\}$$

10 Javobi: Gazlar aralashmasida 16 l.  $\text{CH}_4$ , 4 l.  $\text{C}_2\text{H}_6$ , 22,4 l.  $\text{C}_2\text{H}_2$  bo'lgan.

***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

**1.** 92 gramm azot(IV) oksidni  $27^{\circ}\text{C}$  va  $120 \text{ kPa}$  bosimda ushlab turilg anda uning 40% qismi dimerga aylandi. Hosil bo`lgan aralashma hajmini aniqlang.

**j:** 33.24litr

**2.** Metan va is gazidan iborat 50 ml aralashmaga 70 ml kislород qo`shib yondirildi. Reaksiyadan keyin aralashma hajmi 80 ml bo`lib qolgan bo`lsa, metanning dastlabki aralashmadagi hajmiy ulushini toping. (Gazlarning hajmi normal sharoitda keltirilgan)

**j:** 0.20

**3.** Kislород va karbonat angidrid gazlari 3:1 hajmiy nisbatda aralashtirildi. Aralashmadagi karbonat angidrid hajmiga teng hajmda noma'lum gaz qo`shilganda, aralashmaning molyar massasi 1.4 birlikka kamaydi. Noma'lum gazning molyar massasini aniqlang.

**j:** 28g/mol

**4.** Metan, kislород va vodorod aralashmasida gazlarning hajmiy ulushlari mos ravishda 30; 50 va 20 ga teng bo`lsa, aralashmaning qanday massasida  $1.204 \cdot 10^{23}$  dona vodorod atomlari bo`ladi?

**j:** 2.6 gramm

**5.** 90 kPa va  $-11^{\circ}\text{C}$  da is gazi, geliy va azot gazlari aralashmasining zichligi 0.827g/l. Aralashmadagi geliyning massa ulushini toping.

**j:** 6.67%

**6.** Hajmiy nisbatlari mos ravishda 1:6:3 nisbatda olingan alken, kislород, azot aralashmasi portlatildi va suv bug`lari kondensatlandi. Hosil bo`lgan gazlar aralashmasini tarkibida ikkita oddiy gaz va bitta murakkab modda bo`lib, vodorodga nisbatan zichligi 16.75 ga teng bo`lsa, hosil bo`lgan aralashmadagi kislорodning molini toping.

**j:** 3 mol

**7.** 112 litr (n.sh.) CO va  $\text{CO}_2$  aralashmasida 55.92 mgr elektron mavjud bo`lsa, ushbu aralashmadagi uglerod (II) oksidning hajmiy ulushini aniqlang. Elektronning massasi  $9.1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ .

**j:** 0.2

**8.** 17 gr natriy sulfat kristallogidrati 12 litr idishga solindi va  $227^{\circ}\text{C}$  ga qadar qizdirilganda bosim  $1.9 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  ga teng bo`ldi. Kristallogidratning kimyoviy formulasidagi suv molekulalari koeffitsiyentini aniqlang.

**j:** 11

**9.** Tarkibida 7.4 gr kalsiy gidroksid tutgan eritmani to`la neytrallash uchun qanday hajmdagi neon va vodorod xlorid aralashmasi ( $D_{havo} = 1.2$ ) yuborish kerak?

**j:**5 litr

**10.** Atsetilenga nisbatan zichligi 1.2 ga teng bo`lgan NO va O<sub>2</sub> dan iborat 1.5 mol gazlar aralashmasi yopiq sistemada ( $v=1\text{litr}$ ) reaksiyaga kirishdi (NO+O<sub>2</sub>=NO<sub>2</sub>) va muvozanat qaror topdi. Hosil bo`lgan gazlar aralashmasini neonga nisbatan zichligi 1.8 ga teng bo`lsa, muvozanat holatidagi NO<sub>2</sub> ni hajmiy ulushini (%) aniqlang.

**j:**30.7

**11.** 2.5 litr idishga 125 kPa va 127°C da turgan argonga 6.4 litr 1.5 atm va -23°C da turgan metan qo`shildi. Aralashma hajmi 4 litrga keltirildi. Agar temperatura 25°C bo`lsa, bosimni (smHg) aniqlang.

**j:**261 smHg ustuni

**12.** Bir litrli idishga sulfat angidridi 227°C va 16.4 atm bosimda turibdi. Agar temperatura 727°C ga qadar oshirilsa, bosim 36.9 atm ga qadar oshdi (sulfat angidning kislород va sulfit angidridga parchalanishi hisobiga ), oltingugurt (VI)-oksidning parchalanish darajasini (%) aniqlang.

**j:**25 %

**13.** 10 g argonga qancha hajm (l.n.sh.) kislород qo`shilganda aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 16.4 bo`ladi?

**j:**50.4 litr

**14.** Suvosti kemasidan chiqqan 2.5 litrli havo pufagi 173 metr yuqorilagandan keyin suv yuzasiga chiqdi. Havo pufagining oxirgi hajmini aniqlang. Yuzada bosim 1 atm. Dengiz tubiga bir metr tushganda bosim 10 kPa ga ortadi deb olinsin .

**j:**45.2 l

**15.** Hajmiy nisbatlari 1:3 bo`lgan kislород va metan aralashmasiga ma`lum miqdorda argon qo`shilgandan keyin geliyga nisbatan zichligi 7.5 bo`lib qoldi. Oxirgi aralashmadagi gidridning massa ulushini aniqlang.

**j:**0.20

**16.** 4 litr idishga teng massali metan va geliy gazlari 27 °C va 93.5 kPa bosimda kiritildi. Aralashmadagi vodorod atomlari sonini aniqlang.

**j:** $7.22 \cdot 10^{22}$

**17.** 32°C da 80 kPa bosimda zichligi 1.39 g/l bo`lgan gazning 35.2 gr miqdori normal sharoitda qanday hajmni egallaydi?

**j:**17.92 litr

**18.** Ko`chada harorat  $-13^{\circ}\text{C}$ , ichkarida esa  $22^{\circ}\text{C}$ . Agar ko`chada turgan gaz balloni ichkariga olib kirilsa, undagi bosim qancha (atm) bo`ladi? Ko`chada balondagi nanometr ko`rsatkichi  $1.2 \text{ MPa}$ .

**j:**  $13.44 \text{ atm}$ )

**19.** Etilen va vodoroddan iborat 1 mol aralashmaning vodorodga nisbatan zichligi 9 ga teng. Aralashma berk idishda Pt katalizatori ishtirokida  $350^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilganda muvozanat qaror topdi va idishdagi bosim 20% ga kamaydi. Bunda amaliy unum qanday bo`ladi?

**j:** 52%

**20.** Propan, metan va karbonat angidriddan iborat 6.165litr aralashma mo`l miqdorda kislородда yondirilganda 11.565litr  $\text{CO}_2$  hosil bo`ldi. Dastlabki aralashmadagi propanning hajmiy ulushini(%) aniqlang.

**j:** 43.78%

### **Yadro reaksiyalariga oid masalalar yechish**

**j:  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$**

**4.** Кўйидагилар 1) лойқа сув; 2) сут; 3) туман қайси дисперс системаларга тааллуқли ?

**j:суспензия, эмульсия, аэрозол**

**5.** Калий нитратнинг  $40^{\circ}\text{C}$  даги эрувчанлик коэффициенти 61 га тенг. Унинг 250 г тўйинган эритмасини буғлатиш натижасида олинган туз массасини (г) ва шу температурадаги эритмасида эриган тузнинг масса улушини топинг. [  $\text{Mr}(\text{K})=39$   $\text{Mr}(\text{N})=14$  ]

**j:94,7 ва 0,38**

**6.** Калий дихроматнинг  $20^{\circ}\text{C}$  даги эрувчанлиги 12,5 г ни ташкил этади. Шу модданинг 400 г сув билан ҳосил қилган тўйинган эритмасининг массаси (г) неча грамм бўлади ?

**j:450**

**7.** ҳажми 3 л бўлган ош тузи эритмасида 9 моль модда мавжуд. Шу эритманинг титри (г/мл) ни аниқланг.

**j:0,176**

**8.** 40 г 4% ли эритма ҳосил қилиш учун неча грамм модда ва сув олиш керак?

**j:**1,6 ba 38,4

**9.** 2 mol  $\text{CS}_2$  da 0,05 mol  $\text{S}_n$  namunasi eritilib hosil qilingan 17,4% li eritma tarkibida  $3,0 \cdot 10^{24}$  dona S atomi bo'lsa, n ning qiymatini toping.

**j:** 20

**10.** Natriy, alummiy va xrom (III) oksidlaridan iborat 15,4g aralashmaning sulfat kislota bilan ta'sirlashuvidan 47,4g ushbu metallaming sulfatlari aralashmasi hosil bo'ldi. Ushbu jarayonda necha gramm suv hosil bo'lgan?

**j:** 7.2

### **Metallar mavzusiga oid masalalar yechish**

Davriy sistemadagi 118 elementning 90 dan ortig'i metallardir.

- I, II, III guruhning barcha elementlari (hva b dan tashqari) metallar.
- IV guruh bosh guruhchasida C va Sidan tashqari barcha elementlar metallar.
- V guruh bosh guruhchasida ikkita metall bor: Sb va Bi.
- VI guruh bosh guruhchasida bitta metall bor: Po.
- IV, V, VI, VII, VIII guruhlarning yonaki guruhchalarida barcha elementlari metallardir.

Qadim zamonlarda odamlar yettita metallni bilishgan: oltin, kumush, mis, temir, qalay, qo'rg'oshin, simob.

**Tabiatda uchrashi.** Yer qobig'ida eng ko'p tarqalgan metall aluminiydir. Undan keyin temir, kalsiy, natriy, kaliy, magniy va titan turadi. Boshqa metallar juda kam miqdorda uchraydi.

## Metallarning tabiatda uchrashi

Faol metallar tuzlar holida uchraydi: Sulfatlar: $\text{CaSO}_4$ , $\text{BaSO}_4$ Xloridlar: $\text{NaCl}$ , $\text{KCl}$ Karbonatlar: $\text{CaCO}_3$ Fosfatlar: $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ Nitratlar: $\text{NaNO}_3$ $\text{KNO}_3$	O'rta faol metallar oksidlar, sulfatlar va sulfidlar holida uchraydi: Oksidlar: $\text{Fe}_2\text{O}_3$ , $\text{Fe}_3\text{O}_4$ Sulfidlar: $\text{PbS}$ , $\text{CuS}$ , $\text{ZnS}$ , $\text{FeS}_2$ Sulfatlar: $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$	Passiv metallar erkin holda uchraydi: Cu — mis Hg — simob Ag — kumush Au — oltin Pt — platina
---	---	--

Agar D.I. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasida berilliyydan astatga tomon diogonal o'tkazilsa, u holda diogonalning o'ng tomoni yuqorisida metallmas elementlar (yonaki guruhcha elementlari bundan mustasno), chap tomon pastida — metall xossasiga ega bo'lgan elementlar joylashgan, yonaki guruhcha elementlari ham metallarga kiradi. Diogonal yaqinida joylashgan elementlar ikki xil xossaga ega. Masalan, Be, Al, Ti, Ge, Nb, Sb va boshqalar.

Birinchi guruhning asosiy guruhchasida joylashgan elementlar ishqoriy metallardir (Li, Na, K, Cs, Rb, Fr)

Ishqoriy metallar suv bilan ta'sirlashib ishqorlarni hosil qiladi. Masalan: KOH, NaOH, LiOH.

Ikkinchi guruhning asosiy guruhchasida joylashgan elementlar ishqoriy-yer metallari deyiladi.






Metallarning atomlarida tashqi energetik qobiqda, odatda, bittadan uchtagacha va faqat oz sondagi tipik bo'limgan metallarda yettitagacha elektron bo'ladi. Metallarning atomlari tashqi elektronlarini oson beradi va kuchli qaytaruvchilik xossalariini namoyon qiladi. Shu sababli metallarning atomlari musbat zaryadlangan ionlarga aylanadi.

Atomlardan ajralib chiqqan elektronlar metallarning musbat zaryadlangan ionlari orasida birmuncha erkin ko'chib yura oladi. Bu zarrachalar orasida bog'lanish vujudga keladi, ya'ni elektronlar kristall panjarasining tugunlarida joylashgan musbat zaryadlangan ionlarning alohida qavatlarini go'yo bir-biriga yopishtiradi. Modomiki elektronlar to'xtovsiz harakatda ekan, ular musbat zayadli ionlar bilan to'qnashganda bu ionlar neytral atomlarga, so'ngra esa oksidlarga aylanadi va hokazo.

**Olinishi.** Metallarni birikmalaridan ajratib olish bilan metallur giya shug'ullanadi. Metallurgiyaning asosiy vazifalari metallarni birikmalaridan qaytarish va metallarni boshqa mod dalardan ajra tishdan iborat. Metallarni birikmalardan olish uchun turli usullar qo'lla ni la di. Sanoatda metallarni olish usul larining barchasi oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asos langan bo'lib, hozirgi kunda quyidagi usullardan foydalaniladi:



- **Pirometallurgik usullar.**
- **Gidrometallurgik usullar.**
- **Elektrometallurgik usullar.**

**Pirometallurgik** usullarda metallarni olish yuqori haroratlarda metall birikmalarini bevosa termik ishlovdan o'tkazishga (passiv metal larni olish) yoki uglerod, uglerod (II)-oksid, aluminiy, krem niy yoki vodorod yordamida metall oksidlarini qaytarishga asoslangan:






Bu usullar yordamida po'lat va cho'yan olinadi.

**Gidrometallurgik** usullarda metallar olish ularning birikmalarini eritmaga o‘tkazib, yuqori haroratlarsiz, elektroliz yor damida yoki boshqa metallar ta’sir ettirib qaytarishga asoslangan:



Bu usullar yordamida oltin, kumush, rux, uran va boshqa metallar olinadi.

**Elektrometallurgik** usullarda metallarni olish oksidlar, gidroksidlar, tuzlar suyuq lan malarini elektroliz qilishga asoslangan:



Bu usullar yordamida ishqoriy va ishqoriy-yer metallar, aluminiy olinadi.

**Ishlatilishi.** Metallar xalq xo‘jaligining barcha sohalarida ishlatiladi. Inson hayotiy faoliyati uchun foydalanish darajasi bo‘yicha metallar oldingi o‘rinlarda turadi. Ishlatilish sohasiga qarab, metallar shartli ravishda qora va rangli metallarga bo‘lingan.

- Qora metallar – temir va uni qayta ishlashning asosiy mahsulotlari cho‘yan va po‘latlar.
- Rangli metallar – temirdan boshqa metallar va ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar.

Metallarning zichligi  $500 \text{ kg/m}^3$ dan katta bo‘lsa, og‘ir va undan kichik bo‘lsa, yengil metallarga farqlanadi:

- Yengil metallar (litiy, natriy, kaliy, kalsiy, aluminiy, magniy, titan va b.). Eng yengil metall litiy bo‘lib, zichligi  $0,5 \text{ g/cm}^3$
- Og‘ir metallar (kadmiy, nikel, simob, qalay, qo‘rg‘oshin, mis, kobalt va b.). Eng og‘ir metall osmiy bo‘lib, zichligi  $22,6 \text{ g/cm}^3$ .

Tashqi ta'sirlarga chidamliligi va zargarlik, ziynat buyumlari tayyorlash uchun ishlatilishiga qarab:

- Nodir metallar (kumush, oltin, platina, palladiy va b.).

Tabiatda kam tarqalgani (siyrak yer elementlari), boshqa metallardan keskin farqlanuvchi ayrim xossalariiga (yarim o'tka zuvchanligi, radioaktivligi, yuqori haroratda suyuqlanishiga) qarab

- Noyob metallar (aktinoidlar, lantanoidlar, molibden, volfram, vanadiy, niobi, tantal, radiy, toriy va b.)

kabi tiplarga bo'linadi. Indiy va kumush nurni yaxshi aks ettirganligi uchun projek tor va reflektorlar tayyorlashda ishlatiladi. Qadimgi vaqtarda asl metallar: oltin va kumush hamda misdan to'lov vositalari bo'lgan pul birliklari tayyorlanib, turmushda ishlatilgan.

- O'zbekistonda hozirgi kunda 40 tadan ortiq qimmatbaho metall konlari topilgan.
- Oltin zaxiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4- o'rinda turadi.
- Oltin konlari Qizilqumdag'i Muruntov, Ajibugut, Bulutkon, Balkantov, Aristontov, O'o'rboy va boshqa yerlarda joylashgan.
- Kumush konlari Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoye, O'qjetpes, Kosmonachi; Namangan viloyatidagi Oqtepada joylashgan.
- Olmaliq kon-metallurgiya kombinati eng yirik korxonalardan biri bo'lib, Qalmoqqir konida qazib chiqa rilgan ruda asosida ishlaydi va rangli metallar ishlab chiqaradi.
- Shuningdek, O'zbekistonda Au, Ag, Cu, Re, Mo, Pb, Zn, W, Cd, Ni, Os, V, Sc, Te, Se kabi ko'plab elementlarning konlari mavjud.

**Fizik xossalari.** Metallarning umumiy fizik xossalari ularning kristall panjaralari alohida

tuzilishga ega ekanligiga bog'liqdir. Barcha metallar o'ziga xos metall yaltiroqligiga ega, chunki metallar o'z sirtidan yorug'lik nurlarini yaxshi qaytaradi. Metallar radioto'lqinlarni ham yaxshi qaytaradi. Bu xossasidan radioteleskoplarda, Yerning sun'iy yo'ldoshlari radionurlanishlarini tutib qoladigan va samolyotlarni katta masofalardan payqab oladigan radiolokatorlarda foydalaniladi.

Metallar elektr toki va issiqlikni yaxshi o'tkazadi. Elektr tokini yaxshi o'tkazadigan eng hammabop metallar mis va alyuminiydir.




Ko'pchilik metallar plastik bo'lib, ular yaxshi bolg'alanadi. Ba'zilari juda mo'rt bo'ladi. Masalan: xrom, marganes, surma juda mo'rt. Eng mo'rt metallar Mendeleyev davriy sistemasining V, VI va VII gruppalarida joylashgan.

Zichlik, qattiqlik va suyuqlanish temperaturalari metallarda nihoyatda turli-tuman. Masalan ishqoriy metallarning zichligi kichik, osmiy eng katta zichlikka ega. Zichligi beshdan kam bo'lган metallar yengil metallar, zichligi beshdan katta bo'lган metallar og'ir metallar deyiladi.

Metallar qattiqligi jihatidan olmosga taqqoslanadi, olmosning qattiqligi 10 deb qabul qilingan. Eng yumshoq metallar ishqorit metallar, eng qattiq metall xrom. Simob eng oson suyuqlanadi, volfram eng qiyin suyuqlanadigan metalldir.

### **Metallarning kimyoviy xossalari.**

1) Metallar va ular birikmalarining xossalari.





3) Metalarni issiqlikni o'tkazuvchanligi kamayib borish tartibi.



Ag,Cu,Au,Zn,Ni,Fe,Pt,Hg.

Metallar atomlari kimyoviy reaksiyalarda valent elektronlarini oson berib musbat zaryarlangan ionlarga aylanadi, bu ularning eng muhim kimyoviy xossasidir.

Metallar nisbiy elektrmanfiyligi yuqori bo'lgan galogenlar, kislород va oltingugurt bilan birmuncha shiddatli reaksiyaga kirishadi.:



Metallar vodorod ionlari va boshqa metallarning ionlari ta'sirida ham oksidlanishi mumkin. Masalan:



Bu reaksiyalarda metall atomlari qaytaruvchi hisoblanadi. Ammo hamma metallarning qaytaruvchilik xossalari bir xil bo'lmaydi. Masalan rux vodorod ionlarini qaytarishi mumkin, mis esa vodorod ionlarini qaytara olmaydi (rux vodorodni kislotalardan siqib chiqara olmaydi).


1865 yilda rus olimi N. N. Beketov metallarning elektrokimyoviy kuchlanish qatorini taklif qildi. Bu qatorda vodoroddan keyin turgan metallar vodorodni birikmalaridan siqib chiqara olmaydi.



---

### **Li,K,Ca,Na,Mg,Al,Zn,Cr,Fe,Ni,Sn,Pd, H, Cu,Hg,Ag,Pt,Au.**

---



Elektrokimyoviy kuchlanish qatorida chapda turgan metall o'ngda turgan metallni uning tuzlari eritmalaridan yoki suyuqlanmalaridan siqib chiqara oladi. Shu qatordan foydalanib, masalan, nikel misni uning tuzi eritmasidan siqib chiqarishini oldindan aytib berish mumkin:







Bu holda elektronlar aktiv metal (Ni) atomlaridan ajraladi va aktivligi kamroq metal ionlariga ( $\text{Cu}^{+2}$ ) birikadi.

Aktiv metallar suv bilan reaksiyaga kirishadi, bunda suv oksidlovchi bo'ladi. Masalan:



Gidroksidlari amfiter bo'lgan metallar, kislotalarning eritmalari bilan ham, ishqorlarning eritmalari bilan ham reaksiyaga kirishadi. Masalan:



Cu,Fe va Al ning 17.35 gr aralashmasiga konsentrangan  $\text{HNO}_3$  ta'sir ettirilganda 4.48 litr gaz ajralib chiqdi, xuddi shuncha aralashmaga  $\text{HCl}$  tasir ettirlganda esa 8,96 li gaz (n sh) da ajraldi, aralashmadagi metallarning foiz tarkibini aniqlang.

### Yechim:


$$x = 6.35 \text{ ----- } 4.48 \text{ (l)}$$



( Fe,Al sovuq  $\text{HNO}_3$  ta'sirlashmaydi)

$$63.5 \text{ gr ----- } 44.8 \text{ (l)}$$



b)  $17.35 - 6.35 = 11 \text{ gr (Fe,Al)}$




Alyuminiy va temir kuyundisidan iborat aralashma xavosiz joyda qizdirilgandan keyin qolgan modda ishqorda eritildi va bunda 6.72 litr (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Bu moddalarining shuncha miqdori HCl da eritilganda 26.88 litr gaz ajralib chiqqan. Dastlabki aralashmaniung tarkibini hamda necha gram alyuminiy va temir kuyundisi reaksiyaga kirishganini aniqlang.

### **Yechim:**


Alyuminiy va temir kuyundisi ta'sirlashganda temir ajralib chiqadi. Alyuminiy amfoter bo'lgani uchun ishqorda eriydi.



Alyuminiy, temir, temir kuyundisi va alyuminiy oksidi xlорid kislotada eriydi va quyidagicha reaksiyalar boradi.



$$5.4\text{gr} \quad \dots \quad x=6.72$$



$$54 \text{ gr} \quad \dots \quad 67.2$$

$$\text{jami H}_2 \quad 26.88 - 6.72 = 20.16 \text{ litr (Fe dan hosil bo'lgan H}_2)$$

$$X=50.4 \text{ gr} \quad \dots \quad 20.16$$





$$\textbf{Javob: } 5.4 + 21.6 = 27 \text{ gr Al; } 69.6$$

$\text{Fe}_3\text{O}_4$  bo'lgan

5:2 mol nisbatda olingan ishqoriy metal va uning gidriddan iborat 13,75 g aralashma mo'l suvda eritilishi natijasida 19,6 g ishqor hosil bo'ldi. Metallni aniqlang.

### Yechim:



$$ax + bx + b = 13,75$$

$$ax + 0,4a x + 0,4a = 13,75 \quad (1)$$

$$(x+17)a = ax + 17a$$

$$(x+17)b = bx + 17b$$

$$0,4ax + 6,8a$$

$$ax + 0,4ax + 17a + 6,8a$$

$$ax + 0,4ax + 23,8a$$

$$ax + 0,4ax + 0,4a = 13,75 \quad (1)$$


$$ax + 0,4ax + 23,8a = 19,6 \quad (2)$$

$$23,4a = 5,85$$

$$a = 0,25$$

$$\begin{aligned} b &= 0,1 \\ 0,25x + 0,1x + 0,1 &= 13,75 \\ 0,35x &= 13,65 \\ x &= 39 \quad K \end{aligned}$$

Xrom(III) oksid *Al* va *Si* aralashmasida qaytarilganda olingan xrom xlorid kislotada eritlganda 13,44 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Agar reaksiyaga kirishgan kreminiy massasi aluminiy massasidan 3 g ga ko'p bo'lsa, reaksiyaga kirishgan aluminiy massasini (g) aniqlang.



### ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

**1.** Kaliy alyuminiyli achchiqtosh  $KAl(SO_4)_3 \cdot nH_2O$  tarkibida Al atomlar soni  $2.26 \cdot 10^{23}$  ta va kislorod atomlar soni  $5.428 \cdot 10^{24}$  ga teng bo'lsa n qiymatini toping?

j:12

**2.** Cu,Fe va Al ning 17.35 gr aralashmasiga konsentrangan HNO<sub>3</sub> ta'sir ettirilganda 4.48 litr gaz ajralib chiqdi,xuddi shuncha aralashmaga HCl tasir ettirlganda esa 8,96 li gaz (n sh) da ajraldi, aralashmadagi metallarning foiz tarkibini aniqlang.

j: 36.6 % Cu, 31.1 % (Al), 32.3 % (Fe)

**3.** Alyuminiy va temir kuyundisidan iborat aralashma xavosiz joyda qizdirilgandan keyin qolgan modda ishqorda eritildi va bunda 6.72 litr (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Bu moddalarning shuncha miqdori HCl da eritilganda 26.88 litr gaz ajralib chiqqan. Dastlabki aralashmaniung tarkibini hamda necha gram alyuminiy va temir kuyundisi reaksiyaga kirishganini aniqlang.

**j:**  $5.4 + 21.6 = 27$  gr Al;  $69.6 \text{ Fe}_3\text{O}_4$  bo'lgan

4. 8,11 gr Na, etanolning suvdagi eritmasiga solinganda hosil bo'lgan eritmada NaOH va natriy etilatning massa ulushi teng bo'ldi. Agar dastlabki eritmada etanolning massa ulushi 95% bo'lsa. Dastlabki eritmaning massasi?

j: 80g

5. Ma'lum miqdordagi metallni eritish uchun massa ulushi 20 % bo'lgan HCl kislotadan 109.5 gr sarflandi. Bunda massa ulushi 25.7 % gat eng bo'lgan metall xlorid eritmasi xosil bo'lgan. Xlorid kislotada qaysi metall eriganligini aniqlang

j: Sc

6. Noma'lum II valentli metallning 19.4 gr sulfidini kuydirish uchun 6.72 litr (n.sh) O<sub>2</sub> talab qilindi. Olingan gazsimon maxsulot katalizator ishtirokida oksidlandi va suvda eritildi. Qanday metall sulfidi kuydirilgan va hosil bo'lgan kislotani neytrallash uchun KOH ning 33.6 % li eritmasidan ( $\rho = 1.33$  gr/ml) necha (ml) talab etiladi.

j: Zn ; 50 ml

7. 18.57 gr metall namunasi 10 % li nitrat kislota eritmasi bilan batamom reaksiyaga kirishgandan so'ng eritmaga mo'1 miqdorda issiq ishqor eritmasi quyilganda 12.8 litr gaz ajralib chiqqan bo'lsa qaysi metall ishlataligan.

j: Zn

8. Nazariy jihatdan 100 gr platinani geksa xlor platinat kislotaga aylantirish uchun 39 % li HCl ( $\rho = 1.19$ ) va 75 % li HNO<sub>3</sub> ning ( $\rho = 1.44$ ) qanday hajmlari talab etiladi. Hosil bo'lgan H<sub>2</sub>[ PtCl<sub>6</sub>] · H<sub>2</sub>O ning massasini hisoblang. Jarayon natijasida NO va NO<sub>2</sub> ekvimolyar aralashmasi xosil bo'ladi.

j: 60 ml; 242 ml ; 219.5 g

9. Uch valentli metall gidroksididan 2.06 gramini eritish uchun H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ning 1 M eritmasidan 30 sm<sup>3</sup> sarflandi. Shu metallning atom massasini, bu qanday metall ekanligini va gidroksidining formulasini chiqaring.

j: Cr

10. Bir valentli metall gologenidi eritmasiga AgNO<sub>3</sub> eritmasidan ortiqcha miqdorda qo'shildi. Oq tusli o'g'izga o'xshash, HNO<sub>3</sub> da erimaydigan cho'kma hosil bo'ldi, bu cho'kmaning massasi 0,68 gr keldi. Galogenid tarkibida 47,6% xlor bo'lganligi ma'lum. Me ning atom massasini va galogenidning molekulyar massasini hisoblab toping uning formulasini chiqaring.

j: KCl

**Noorganik moddalarning eng muhim sinflaridan oksidlar va asoslar mavzusini  
o'rghanishda masalalar yechish**

## Oksidlar

Elementlarning kislorod bilan hosil qilgan birikmasi oksidlar deyiladi.

Oksidlarda kislorod bilan birikkan element doimo musbat valentli,

kislorod esa manfiy ikki valentli bo'ladi ( $\text{F}_2\text{O}$  dan boshqa birikmalarda).

Oksidlar kimyoviy xossalariiga ko'ra to'rt gruppaga bo'linadi:


1. Asosli oksidlar ; 2. Kislotali oksidlar ; 3. amfoter oksidlar (bular tuz hosil qiluvchi oksidlar ham deyiladi); 4. Tuz hosil qilmaydigan oksidlar (masalan,  $\text{NO}$  va  $\text{CO}$  tuz hosil qilmaydi). Ko'pincha bu oksidlar betaraf (indiferent) oksidlar ham deyiladi.

Oksidlarni olinishi. Oksidlarni quyidagi usullardan foydalanib olish mumkin:

1. Metall yoki metalloidlarning kislorod bilan birikishi (bu jarayon yonish yoki oksidlanish deyiladi):




4 $\text{Al} + 3\text{O}_2 = 2\text{Al}_2\text{O}_3$




2. Murakkab moddalarning kislorodda yonishi ;




3. Gidroksidlarni parchalanishi:




Kimyoviy xossalari. 1. Asosli oksidlar kislotalar bilan reaktsiyaga kirishib, tuz va suv hosil qiladi (neytrallanishi reaktsiyasi). Masalan:



2. Asosli oksidlar suv bilan reaktsiyaga kirishib asos hosil qiladi:



3. Asosli oksidlar kislotali oksidlar bilan reaktsiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:



**Asoslar.** Asoslar molekulasi metall atomi va gidroksid gruppadan tarkib topgan murakkab moddalardir. Ularda metall atomi doimo musbat


valentlik ( kation), gidroksid gruppasi esa manfiy valentlik ( anion) namoyon qiladi. Gidroksid gruppasining soni metallning valentligiga teng bo'ladi. Masalan: NaOH, Mg(OH)<sub>2</sub>, Al(OH)<sub>3</sub>.

Asoslar suvda yaxshi eriydigan va yomon eriydigan asoslarga bo'linadi. Ishqoriy metallar va ishqoriy-er metallari ning gidroksidlari suvda yaxshi eriydi va yaxshi dissotsilanadi. Suvda juda yaxshi eriydigan asoslar ishqorlar deyiladi. Masalan: LiOH, NaOH, KOH, RbOH, CsOH, Ba(OH)<sub>2</sub>, Ra(OH)<sub>2</sub> ishqorlar hisoblanadi. Ishqor terini o' yadi, shisha, yo g'och va kiyimni emiradi. Shuning uchun ham ularni o' yuvchi ishqorlar deyiladi.

Davriy sistemadagi I va II gruppasining yonani gruppacha va III, IV, V, VI, VII, VIII gruppasi metallarining gidroksidlari suvda yomon eriydi, ular asoslar jumlasiga kiradi .

Olinishi. Asoslar bir necha usullar yordamida olinadi:



1. Aktiv metallarni suvga ta'sir ettirib:





2. Asosli oksidlarga suv ta'sir ettirib:




3.Suvda yomon eriydigan asoslar olish uchun tuzlarga ishqor ta'sir ettiriladi:





Bu usul bilan suvda yaxshi eriydigan asoslar ham olish mumkin. Bunda hosil bo'layotgan tuz , suv va ishqorda erimaydi:





Kimyoviy xossalari 1. Suvda yaxshi eriydigan asoslar va suvda yomon eriydigan asoslar kislotalar bilan reaktsiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:







2. Asoslar kislotali oksidlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:






3. Asoslar tuzlar bilan reaksiyaga kirishib, yangi tuz va yangi asos hosil qiladi:




4. Asoslar amfoter oksid va amfoter gidroksidlar bilan reaksiyaga kirishib, tuz

hosil qiladi:



5. Ishqorlar yuqori haroratga chidamli bo'ladi. Masalan, NaOH 1400°C da parchalanmasdan qaynaydi. Asoslarning ko'pchiligi qizdirilganda metall oksidi va


suvga parchalanadi:










Asos eritmasiga qizil lakkus qo'g'oz tushirilsa, u ko'karadi, fenolftalein eritmasidan bir-ikki tomchi tomizilsa, eritma pushti rangga kiradi.

Metiloranj eritmasidan tomizilsa, eritma sari q rangga kiradi.

14,7 g ortofosfat kislotasi 33,3 g noma'lum asos bilan reaksiyaga kirishganda  $(\text{MeOH})_3\text{PO}_4$  tuzi hosil bo'ldi. Bunda qancha (ml) suv hosil bo'ladi?



Mol miqdordagi uglerod  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va  $\text{CaO}$  aralashmasiga qo'shib qizdirilgandahosil bo'lgan moddalarga yetarli miqdorda xlorid kislota ta'sir ettirildi. Bunda ajralgan gazlarni bromli suv orqali o'tkazilganda idishning massasi 3,9 g ga ortdi. Qolgan gazni yoqish uchun esa 1 mol havo sarflandi. Dastlabki aralashmadagi oksidlarning massalarini g aniqlang. (Havo tarkibida hajm bo'yicha 20%  $\text{O}_2$  bor)



28% li 350g qaxrabo kislotasi eritmasini tayyorlash uchun qaxrabo angidridi va 20% li qaxrabo kislotasidan necha gramdan olish kerak?



Qaxrabo angidridni massasini 100g deb olsak, qaxrabo kislotasining massasi 118g chiqadi.

$$\begin{array}{rcl} 118 & & 8 \\ 28 & + & = 98 \\ 20 & & 90 \end{array}$$

98g ichida 8g bo'lsa, 350g da 28,57g qaxrabo angidridi va 350-28,57=321,43g qaxrabo kislota bo'ladi.

### ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

**1.** Mol nisbati 1:2:1 bo`lgan 4 g temir (II, III) oksidi, uglerod va mis (I) oksididan iborat aralashmani eritish uchun 82% li sulfat kislotaning massasini (g) hisoblab toping. Reaksiya natijasida hosil bo`lgan oltingugurt (IV) oksidning hajmini (l.n.sh) aniqlang.

**j:** 10,75; 0,896

**2.** Mol nisbati 1:2:3 bo`lgan 6,88 g temir (II,III) oksidi, uglerod va mis (I) oksididan iborat aralashmani eritish uchun 54% li nitrat kislotaning massasini (g) hisoblang. Reaksiya hosil bo`lgan azot (IV) oksidning hajmini (l.n.sh) aniqlang.

**j:** 42 ; 3,36

**3.** He, CO va noma`lum gaz aralashmasining vodorodga nisbatan zichligi 11 ga teng. Shu aralashmada He va CO teng hajmda, noma`lum gaz massasi is gazining massasidan 2 marta ko`p bo`lsa, noma`lum gazni toping.

**j:N<sub>2</sub>**

**4.** 40,8 g sirka angidrid olsh uchun necha gramm ketenga suvsiz sirka kislota ta'sir ettirish kerak?

**j:** 16,8

**5.** 40g Ca va CaO aralashmasi bilan HBr reaksiyaga kirishganda 3,36 l gaz hosil bo`lgan bo'lsa, dastlabki aralashmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) mos ravishda aniqlang.

**j:** 15;85

**6.** Massasi 14,2 bo'lgan fosfat angidridga 16g natriy gidroksid saqlagan eritma qo'shildi. Hosil bo'lgan tuzning formulasi va massasini (g) aniqlang.

**j:**28,4g Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub>

**7.** Beshinchi guruh elementining eng yuqori oksidi tarkibida 34,8 % kislorod bo'lsa, oksidni aniqlang.

**j:**As<sub>2</sub>O<sub>5</sub>

**8.** Litiy oksid, natriy oksid, kaliy oksid, rubidiy oksid va seziy oksid qatori bo'y lab ularning suv bilan reaksiyaga kirishish aktivligi qanday o'zgaradi?

**j:**ortadi

**9.** 448ml oltingugurt (IV) oksid (n.sh) natriy gidroksidning 100ml 0,2 M eritmasi orqali o'tkazilganda hosil bo'lgan tuzni va uning massasini (g) aniqlang.

**j:**2,08, NaHSO<sub>3</sub>



**10.** 28% li 350g qaxrabo kislotasi eritmasini tayyorlash uchun qaxrabo angidridi va 20% li qaxrabo kislotasidan necha gramdan olish kerak?

**j:**28,57;321,43

### **Noorganik moddalarning eng muhim sinflaridan kislotalar va tuzlar mavzusini o'rGANISHda masalalar yechish**

**Kislotalar.** Kislotalar tarkibida vodorod atomi bo'lgan va uning

o'rnini metall atomi olishi natijasida tuz hosil qiladigan murakkab moddalardir. Masalan:




Kislotalar asosan ikki turga: kislorodli va kislorodsiz kislotalarga bo'linadi. Agar kislota molekulasida kislorod atomlari bo'lsa , bunday kislotalar kislorodli kislotalar deyiladi.

Masalan, HMnO<sub>4</sub>, H<sub>2</sub>SiO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, H<sub>3</sub>AsO<sub>4</sub>, HClO<sub>3</sub>, H<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>va hokazo.



Agar kislota molekulasida kislorod atomlari bo'lmasa, bunday kislotalar kislorodsiz kislotalar ( masalan HCl, HF, HI, H<sub>2</sub>S va hokazo)

deyiladi.



Olinishi. 1. Kislota oksidlariga suv ta'sir ettirib olinadi.





2. Metallmaslarga vodorodni ta'sir etib olinadi .





3. Tuzlarga boshqa kislotalar ta'sir etib olinadi:




Kimyoviy xossalari. 1.Kislotalar asoslar bilan neytrallanish reaktsiyasiga kirishib, tuz va suv hosil qiladi:




2. Kislotalar metallar bilan reaktsiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:




3. Kislotalar asosli oksidlar bilan reaktsiyaga kirishib, tuz hosil qiladi:



4. Kislotalar tuzlar bilan reaktsiyaga kirishib, yangi kislota va yangi tuz hosil qiladi:



5. Kislorodli kislotalar qizdirilganda suv bilan angidridiga ajraladi:



6. Kislotalar ko'k lakkusni qizartiradi , metiloranj sari q rangini qizartiradi ; fenolftalein esa kislotalarda rangsizligicha qoladi.

**Tuzlar.** Molekulasi metall atomi va kislota qoldig'idan tarkib topgan murakkab moddalar tuzlar deyladi .

Tuzlar molekulalarining tarkibiga qarab normal, nordon, gidrokso tuzlarga, qo'sh va kompleks tuzlarga bo'linadi.


Normal tuzlar. Kislota molekulasiagi vodorod atomlari metallga to'liq o'rinn almashinishi yoki asoslar tarkibidagi hidroksid ( $\text{OH}$ ) gruppasi kislota qoldi g'iga to'liq almashinishi natijasida normal tuzlar hosil bo'ladi:



Nordon tuzlar. Nordon tuzlar suvdagi eritmalarida ikki bosqichda disotsilanadi:




Olinish usullari: 1. Kislotalarga kam miqdorda ishqor qo'shish bilan nordon tuz hosil qilish mumkin:



2. Tuzlarga oz miqdorda kislota qo'shib nordon tuz hosil qilish mumkin:



3. Asoslarga mo'l miqdorda kislotali oksid ta'sir qilib ham nordon tuz hosil qilinadi:



Gidroksotuzlar. Molekulasi tarkibida metall atomi va kislota qoldi g'idan

tash qari gidroksid ( $\text{OH}$ ) gruppasi bo'lgan murakkab moddalar gidroksotuzlar deb ataladi. Masalan,  $\text{Cr}(\text{OH})_2\text{NO}_3$ ,  $\text{Fe}(\text{OH})_2\text{Cl}$ ,  $\text{AlOHSO}_4$ ,  $\text{NiOHSO}_4$ ,  $(\text{CuOH})_2\text{CO}_3$ ,  $\text{Al}(\text{OH})_2\text{Cl}$ .

Gidrokso-tuzlarni asos tarkibidagi gidroksid guruppaning bir qismi kislota qoldi g'iga almshinishidan hosil bo'lgan mahsulot deb qarash mumkin.

Gidokso-tuzlar suvda yomon eriydi.

Olinishi. 1. Gidrokso-tuzlar normal tuzlarning gidrolizi natijasida hosil bo'ladi:



2. Normal tuzlar asoslar bilan reaktsiyaga kirishib gidrokso-tuzlar hosil qiladi:



3. Asoslar bilan oz miqdordagi kislotalarning o' zaro ta'siridan gidroksotuzlar hosil bo'ladi:




Tuzlarni olish usullari. Tuz olinishining bir necha usullari bor. Ulardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

1. Metallarga metallmaslarni ta'sir ettirish:




2. Asoslarga kislotalar ta'sir ettirish:




Bu reaktsiya neytrallanish reaktsiyasi deyiladi.


3. Metallga kislota ta'sir ettirib ham tuz hosil qilish mumkin:





4. Asosli oksidlarga kislotalar ta'sir ettirib:



5. Asosli oksidlarga kislotali oksidlar ta'sir ettirib:



6. Kislotali oksidlarga asoslar ta'sir ettirib:





7. Metallmaslarga ishqorlar ta'sir ettirib ham tuz olish mumkin.


Galogenlar, oltingugurt va boshqa elementlarga ishqor ta'sir ettirib, kislotalarning tuzlarini hosil qilish mumkin:





8. Amfoter oksid hosil qiladigan metallga ishqor ta'sir ettirib tuz hosil qilinadi:





9. Tuzlarga kislotalarni ta'sir ettirib, tuz hosil qilinadi. Tuzga kislota ta'sir ettirilganda yangi tuz va yangi kislota hosil bo'ladi. Reaktsiyaning borishi uchun olingan kislota kuchliroq yoki kamro q uchuvchan bo'lishi kerak:




10. Tuzlarga tuzlarni ta'sir ettirib ham olish mumkin. Bu usul ancha keng qo'llaniladigan usullardan biridir. Bunda reaktsiya oxirigacha borishi uchun hosil bo'layotgan mahsulotlardan biri cho'kmaga tushishi kerak:



11. Tuzlarga ishqorlarni ta'sir ettirish y o'li bilan ham tuz olish mumkin. Bu reaktsiya natijasida yangi tuz va yangi asos hosil bo'ladi. Bu reaktsiyadan, asosan, asoslarni olish va nordon tuzlarni normal tuzlarga aylntirishda foydalaniлади:





12. Tuzlarga kislotali oksidlar ta'sir ettirish bilan:



Bu reaktsiyalar ko'pincha qizdirish bilan boradi .

13. Metallmaslarning tuzlar bilan reaktsiyaga kirishishidan ham tuz hosil bo'ladi:



$H_2SO_4$  ning 850 g eritmasi tarkibida  $140 \cdot N_A$  ta  $sp^3$  gibridlangan orbitallar mavjud bo'lsa ,  $H_2SO_4$  ning massasini (g) toping .

**Yechim:**  $x H_2SO_4$        $y H_2O$


$$\left\{ \begin{array}{l} 12x + 4y = 140 \cdot 4.5 \\ 98x + 18y = 850 \end{array} \right.$$

$$44x = 220$$

$$X = 5 \cdot 98 = 490$$

200 g 14,2%  $Na_2HPO_4$  eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml  $H_3PO_4$  eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadi  $NaH_2PO_4$  tuzining massa ulushi  $Na_2HPO_4$  tuzining massa ulushidan  $71/40$  marta kam bo'ldi. Qo'shilgan  $H_3PO_4$  eritmasining molyarligini (M) aniqlang.

**Yechim:**



$$71(240x) = 40(28,4 - 142x)$$



$$X = 0,05$$

$$2) C_m = \frac{n}{v} = \frac{0,05}{0,1} = 0,5M$$

0,8 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislota eritmasiga Na metali qo'shilganda 17,92 litr (n.sh.) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lган idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yuttilishi natijasida hosil bo'lган mahsulot bиринчи reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 34:41 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislotaning 1 ta molekulasi tarkibidagi  $sp^3$ -gibridlangan orbitallar sonini

aniqlang.

**Yechim:**




$$82 - 67(COONa) = 15 - 1 = 14 \text{ demak } CH_3COOH$$

$$Sp^3(4) + sp^2(4) = 8$$

0,06 mol  $CuSO_4 \cdot 3H_2O$  va  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$  aralashmasining to’liq degidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo’ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.

**Yechim:**



### ***Mustaqil yechish uchun masalalar.***

**1.** 15,3 g metall oksididan 80,1 g metall bromidi olingan. Shu metall hosil qilgan sulfid tuzining 0,3 moli massasini (g) aniqlang.

**j:** 45

**2.** Ammoniyning karbonati va gidrokarbonati qizdirishdan olingan gaz mahsuloti normal sharoitga keltirildi. So‘ngra gazlar aralashmasi mo‘l miqdordagi xlorid kislota eritmasidan o‘tkazildi. Natijada gazlar aralashmasining hajmi 2,5 marta kamayadi. Dastlabki aralashmadagi tuzlarning mol nisbatini toping.

**j:1:1**

**3.**  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot x\text{H}_2\text{O}$  kristallogidrati ohista qizdirilganda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallogidrat hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan suv bug'i dastlabki kristallogidrat tarkibidagi suvning 2/5 qismini tashkil etsa, kristallogidrat tarkibini aniqlang.

**j:**  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$

**4.** Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va  $\text{N}_2\text{O}$  larning hajmlari teng bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.

**j:3:8**

**5.** O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kalyi permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol  $\text{CO}_2$  gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Benzoy kislotani hosil qilgan aromatik uglevodorod massasini (g) aniqlang.

**j:26,8**

**6.** Mis (II) nitrat kristallogidrati tarkibida kislородning massa ulushi vodorodnikidan 24 marta katta bo'lsa, bir mol tuzga necha mol suv to'g'ri keladi.

**j: 3**

**7.** Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.

**j:828**

**8.** Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi  $\text{HCl}$  tugaguncha eritilganda  $\text{H}_2$  gazi ajraldi va  $\text{MeCl}_2$  ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan  $\text{MeCl}_2$  eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)

**j: 59**

**9.** Molyar konsentratsiyalari nisbati 1:2 bo'lgan sulfat va xlorid kislota eritmalarini to'la neytrallash uchun 200 g 12% li  $\text{NaOH}$  eritmasi sarflandi. Boshlang'ich eritma  $\text{BaCl}_2$  bilan ishlov berilganda cho'kmaga tushadigan tuz massasini (g) aniqlang.

**j: 34,95**

**10.** 200ml ( $\rho=1,22\text{g/ml}$ ) 20% li bariy xlorid eritmasiga 122gr  $\text{BaCl}_2 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  qo'shilganda 41,74% li eritma hosil bo'ldi. Kristalgidrat tarkibidagi "n" ning qiymatini toping?

**j:2**

## Aralash masalalar.

**1.** 3-brompropendan Shorigin usuli bo'yicha olingan organik modda tarkibidagi  $sp^3$  va  $sp^2$  – gibridlangan orbitallar sonini mos ravishda aniqlang.

j: 8:12

**2.** Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.

j: 1/6; 1/2; 1/3

**3.** Noma'lum elementning oxirgi elektronining kvant soni qiymati  $n=3$ ;  $l=2$ ;  $ml=x$ ;  $ms=+1/2$ . Agar shu qiymatlar yig'indisi 7,5 ga teng bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.

j: Cr

**4.**  $2A + xB \rightarrow 2C$  reaksiyasida  $0,04 \cdot 10^2$  mol A moddaning 50% sarflangan, B ning 50% ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, B ning necha moli sarflangan? ( $K_m=1$ )

j: 1

**5.** 25 g tuz saqlangan 50% li eritma olish uchun 40% li va 60% li eritmalar aralashtrildi. 40% li va 60% li eritmalarini mos ravishda necha gramdan tuz saqlagan?

j: 10; 15

**6.** Tarkibida noma'lum modda saqlangan 120 g eritmaning molyarligi va molyalligi 5 ga teng bo'lsa, eritmaning foiz konsentratsiyasini (%) aniqlang. ( $\rho=1,2$  g/ml deb hisoblansin )

j: 100/6

**7.** Butadiyen kauchukdagi monomer zvenolar soni tabiiy kauchukdagi zvenolar sonidan 300 taga ko'p. Tabiiy kauchukdagi 32% ebonit ( molekulyar massasi 425000) olindi. Butadiyen kauchugining polimerlanish darajasini aniqlang.

j: 4550

**8.**  $NH_3 + KClO = KCl + N_2 + H_2O$  reaksiya bo'yicha oksidlovchi  $6 \cdot N_A$  elektron olgan bo'lsa, ajralgan gaz hajmini (l, n.sh) toping.

j: 22,4

**9.**  $MeSO_4$  ning 160 g 10%li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g  $MeSO_4 \cdot 7 H_2O$  cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.

j: 0,1

**10.**  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada  $x$ ,  $y$ ,  $z$ ,  $z$  koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.

**j:** 80

**11.** 20 litr  $\text{NH}_3$  parchalanganda uning hajmi  $5/4$  marta ortdi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi  $\text{H}_2$  va  $\text{N}_2$  ning hajmi ulushini (%) toping.

**j:** 30; 10

**12.** DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, shu DNK ning qo'sh spirali tarkibida nechta vodorod bog' mavjud?

(nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)

**j:** 1200

**13.** 59 g  $\text{R}-\text{CCl}_3$  tarkibli gemigaloid uglevodorod suv bilan gidrolizlanganda 29,6 g karbon kislota olindi. Olingan karbon kislotani aniqlang.

**j:** propion kislota

**14.** Sanoat usuli bo'yicha 8,4 kg tiofen olish talab etiladigan oltingugurt qancha (kg) pirit tarkibida bo'ladi? (Piritning tozalik darajasi 75%)

**j:** 32

**15.** Dissotsiatsiyalanish darajasi 96% bo'lgan natriy nirtat tuzi eritmasida 2400 ta ion bor bo'lsa, nechta dissotsiatsiyalanmagan tuz molekulasi bor? (suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin)

**j:** 50

**16.** 6,72 litr (n.sh.) butan tarkibidagi vodorod atomlari sonini aniqlang.

**j:**  $3 \cdot N_A$

**17.** 0,03 mol  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{Na}_2\text{CO}_3 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,28 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.

**j:** 2:1

**18.** Noma'lum element tarkibida 35,3 % neytron (jami atom zarrachaga nisbatan) mavjud. Undagi proton va elektron yig'indisi neytronlar yig'indisidan 10 taga ortiq bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.

**j:** Na

**19.** 20°C da turgan  $\text{CO} + \text{O}_2 \leftrightarrow \text{CO}_2$  sistemada bosim 4 marta oshirildi. Sistema harorati necha gradusgacha o'zgartirilganda to'g'ri reaksiya tezligi 8 marta ortadi? ( $\gamma = 2$ )

**j:** -10

**20.** X% li eritma massasining 1/5 qismi bug'latildi. Bunda erituvchining massasi 1/4 qisimga kamaydi. Eritmaning massa ulushi  $5/4$  martta ortsa, X ni

aniqlang.

j:20

**21.**  $52 \text{ g H}_2\text{SO}_4 \cdot x\text{SO}_3$  tarkibli oleumni neytrallash uchun 1,12 mol KOH sarflandi. X ning qiymatini aniqlang.

j: 0,4

**22.**  $\text{XO}_4^{-3} \rightarrow \text{X}^{3-}$  Ushbu qaytarilish jarayonida  $\text{X}^{3-}$  qabul qilgan elektronlar soni dastlabki X ning protonlari sonidan  $33/8$  marta kam bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.

j: As

**23.** Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 33,4 g xlorat ionlari  $2,4 \cdot \text{NA}$  dona elektron biriktirib oldi. Qaytarilish mahsulotini toping.

j:  $\text{Cl}^{-1}$

**24.** 0,3 mol  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallogidrat ma.lum miqdordagi suvda erilib 1,5 molyalli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok kuchi bilan 19300 sekund davomida elektoliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilanligini aniqlang?

j: 164

**25.** 91,8 g metal oksididan 124,8 metall xloridi olingan. Metallni aniqlang.

j: Ba

**26.** 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning massasini (g) hisoblang.

j: 11,2

**27.**  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada x, y, z, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 2:1:1:1 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.

j:50

**28.** Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasi massasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.

j: buten

**29.** Butadiyen kauchukdagi monomer zvenolar soni tabiiy kauchukdagi zvenolar sonidan 300 taga ko'p. Tabiiy kauchukdagi 32% ebonit (molekulyar massasi 425000) olindi. Butadiyen kauchugining polimerlanish darajasini aniqlang.

j: 4550

**30.** DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa,

nukleotid tarkibida nechta adenin bor? (nukleotidlarning 20%ini guanin tashkil etadi)

j:300

**31.**0,3 mol laktoza gidrolizlanishidan olingan glukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallash uchun necha gramm 28% li KOH sarflanadi?

j:300

**32.**0,25 mol miqdordan olingan  $XY_2$  va  $AXY_3$  birikmalarda mos ravishda  $5,75 \cdot N_A$ va  $8 \cdot N_A$  tadan elektron bo'lsa, X ni toping.

X va Y elementlar bitta davrda (berilgan tartibda) ketma-ket joylashgan.

j: F

**33.**Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.

j:1/7; 3/7; 3/

**34.** $MgSO_4 \cdot nH_2O$  kristallogidratida suvdagi elektronlar soni magniyning elektronlari sonidan 7 martta ko'p bo'lsa, n ni aniqlang.

j: 7

**35.**Tarkibida massa bo'yicha 38,71% Me, 20,00% P va 41,29% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.

j: $Ca_3(PO_4)_2$

**36.**200 g 73,5% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 49% li eritma hosil bo'ladi?

j:100

**37.**Molyar konsentratsiyalari nisbati 1:2 bo'lgan sulfat va xlorid kislota eritmalarini to'la neytrallash uchun 200 g 12% li NaOH eritmasi sarflandi. Boshlang'ich eritma  $BaCl_2$  bilan ishlov berilganda cho'kmaga tushadigan tuz massasini (g) aniqlang.

j:23,3

**38.**Biror bir tuzning  $90^{\circ}C$  dagi eruvchanlik koeffitsiyenti  $60^{\circ}C$  dagi eruvchanlik koeffitsiyentidan 3 barobar ko'p shu tuzning  $90^{\circ}C$  da to'yingan 240 g eritmasi  $60^{\circ}C$  ga sovitilganda 60 g tuz cho'kmaga tushishi ma'lum bo'lsa, tuzning  $90^{\circ}C$  dagi eruvchanlik koeffitsiyenti aniqlang.

j:60

**39.**KOH ning 0,8 M 400 ml eritmasiga 1,92 g ishqor qo'shilganda pH=14 bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Ishqorni toping. ( $\alpha=100\%$ , hajm o'zgarishi hisobga olinmasin)

j: LiOH

**40.** $KOH + H_3PO_4 \rightarrow KH_2PO_4 + H_2O$  reaksiyada olingan mahsulotlar massasi yig'indisi va sarflangan ishqor massasi farqi 58,8 g bo'lsa, sarflangan 56% li

ishqor eritmasi massasini (g) aniqlang.

j:60

**41.** 200 ml 1M li  $\text{AgNO}_3$  eritmasi inert elektrodlar yordamida elektroliz qilinganda katodda 23 g modda ajraldi. Eritmadan necha faradey tok o'tganini aniqlang.

j: 1,6

**42.** Tarozining ikkala pallasidagi idishlarga bir xil hajmdagi bir xil konsentratsiyali xlorid kislota eritmasi quyilgan. Agar bir pallasidagi eritmaga 1,176 g natriy gidrokarbonat solinsa, ikkala pallani tenglashtirish uchun ikkinchi pallasiga kalsiy karbonatdan necha mol solish kerak?

j:0,01

**43.**  $\text{MeSO}_4$  ning 100 g 10% li to'yigan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g  $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$  cho'kmaga tushdi. Kristallogidratdan kristalizatsion suv to'liq chiqarilsa necha gramm  $\text{MeSO}_4$  qoladi?

j:7,6

**44.** 1 mol  $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$  bir litr hajmdagi yopiq idishda  $100^{\circ}\text{C}$  yuqori haroratda qizdirilgandan so'ng hosil bo'lган gazlar aralashmasidagi  $\text{NH}_3$  ning massa ulushini (%) aniqlang.

j: 35,4

**45.** Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan  $\text{NO}$  va  $\text{N}_2\text{O}$  larning hajmlari nisbatni 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan  $\text{Zn}$  larning mol nisbatni aniqlang.

j:3:2

**46.** Ikkilamchi alifatik to'yigan amin yondirilganda sarf bo'lган kislorod hajmi hosil bo'lган  $\text{CO}_2$  hajmidan 1,75 marta ko'p bo'lsa, aminni toping.

j: metiletilamin

**47.** Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 52,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislota eritmasida gidrolizlanganda 89,2 g modda hosil bo'ladi. Aminokislotani aniqlang.

j:glitsin

**48.** 26,5 g akrilonitril gidrolizlanishidan necha gramm akril kislota olinadi?

( $\eta=0,75$ )

j:27

**49.** 0,25 mol malon kislota qizdirilganda hosil bo'lган mahsulotlarni to'liq neytrallash uchun qancha (g) 25 % li  $\text{NaOH}$  eritmasi kerak bo'ladi?

j:120

**50.** O'zaro izomer bo'lган ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol  $\text{CO}_2$  gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.

j:26,8; 53,6

**51.** Necha gramm triakontan tarkibida  $0,15 \cdot NA$  ta uglerod atomi bor?

j: 2,11

**52.** 0,03 mol  $Na_2SO_4 \cdot 10H_2O$  va  $Na_2CO_3 \cdot 8H_2O$  aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,28 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.

j: 2:1

**53.** 600 g 25% li eritmadan bir qismi to'kildi va unga xuddi shunday massadagi 55 %li eritma qo'shilganda 45% li eritma hosil bo'ldi. Ushbu jarayonda qancha (g) 55 %li eritma ishlatalgan?

j: 400

**54.** Nitrat kislotaning 20% li va 60% li eritmalar bo'lib, 20% li eritmadagi kislota massasi 60% li eritmadagi suv massasidan uch marta kam bo'lsa, ushbu eritmalar aralashtirilganda hosil bo'ladigan eritma konsentratsiyasini (%) aniqlang.

j: 44

